

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XALQ IJODIYOTI FAKULTETI


“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA  
BOSHQARISH” KAFEDRASI

**Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda badiiy havaskorlik  
to‘garaklarining roli mavzusidagi**


## **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** “Madaniyat va san‘at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchi 4  
kurs talabasi

Baxrullayeva Zulfiyabegim Xayrullo qizi

  
(imzo)

**Ilmiy rahbar:** “Madaniyat va san‘at  
muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish” kafedrasida katta o‘qituvchisi  
X.X.Shodiyev

  
(imzo)




Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi. Kafedra  
majlisisning 26 sonli bayonnomasi “17” may 2018 yil

TOSHKENT-2018


# Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Xalq ijodiyoti”  
fakulteti dekani  
J.Mamatqosimov

“ 14 ”  20 18 yil



“Madaniyat vas an’at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish”  
kafedrasini mudiri  
B.Salaydinov

“ 12 ”  20 18 yil



## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	3
<b>I BOB. YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.</b>	
1.1. Madaniyat va san'at muassasalarida ta'limdan tashqari faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.....	7
1.2. Madaniyat muassasalarining ijtimoiy faollashtirish imkoniyatlari.....	18
<b>II.BOB. BADIY HAVASKORLIK TO'GARAKLARI YOSHLARNING IJTIMOYILASHUVIGA TA'SIRI</b>	
2.1. Badiiy havaskorlik to'garaklarining ish jarayonida ijodiy va tarbiyaviy xususiyatlari.....	34
2.2. Badiiy havaskorlik to'garaklarining taniqli badiiy jamoalar bilan ijodiy hamkorligi va faollashish bosqichlari.....	53
<b>XULOSA</b> .....	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	60

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.** O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan so‘ng, siyosiy, ijtimoiy iqtisodiy sohalar kabi ma‘naviy va ma‘rifiy sohada ham islohotlar olib borildi. Ayniqsa, sobiq sovet tuzumining mustabid siyosatini targ‘ib qiladigan madaniyat muassasalarining ish uslubi o‘zgarib, milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini yoshlar ongiga singdirish yo‘lga qo‘yildi va turli tadbirlar tashkil etildi. Shu ma‘noda ta‘limdan tashqari bo‘lgan madaniyat muassasalarida san‘at va amaliy ijodiyot sohalarini uzluksiz o‘zlashtirib borish asosida tarbiyalash kabi muammoviy masala mavjud.

Madaniy-ma‘rifiy faoliyatni tashkil qiluvchi muassasalarning asosiy vazifalari yoshlarning ta‘limdan bo‘sh vaqtlarida olib boriladi, yoshlarning ta‘limdan tashqari har hil mazmundagi va shakldagi “ikkinchi” faoliyat bilan shug‘ullanishlariga imkoniyat yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: “...o‘sib kelayotgan avlodga, uning ma‘naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma‘naviyatining munosib egalaridir”<sup>1</sup>. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda madaniyat muassasalarining san‘at va amaliy ijodiyot bilan bog‘liq faoliyatini tashkil etish ishlari muhim hisoblanadi. Bu ishlarni guruhli va yakka tartibda olib borish, madaniy-ma‘rifiy faoliyatni samarali tashkil qilish, xavaskorlik to‘garaklarning ijodiy faoliyatini tizimlashtirish kabi masalalar hali to‘liq yechimini topishi lozim.

Shunday ekan yosh davlat uchun ertangi kunimiz egasi bo‘lgan bolalarni tarbiyalash, shubhasiz, birinchi darajali muammo va tadbirlardan hisoblanadi. Bugun biz bolalarni tarbiyalashda halollik, to‘g‘rilikni, bayroq qilib olishimiz, bunyodkor mafkuramizga tayanishimiz, imon-e‘tiqodga suyangan holda ularning ijtimoiy faolligini oshirishdan boshlashimiz lozim bo‘ladi.

Bolaga ta‘lim va tarbiya berish jarayonida asosan bilim va odob-ahloq, ma‘naviy oziq berish bilan bir qatorda ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli, biror

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 80.

kasb va hunar mahoratini takomillashtirishga qaratgan holda tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Biz tadqiq qilmoqchi bo'lgan mavzuning dolzarbligi ham shundan kelib chiqadi.

**Tadqiqot obyekti va predmetining belgilanishi.** Tadqiqotning asosiy obyekti yoshlarni san'at va amaliy ijodiyotga oshno qiladigan madaniyat muassasalari hisoblanadi. Bir necha ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining milliy san'ati va ijodiy jarayonlar tadqiqotning predmeti bo'lib hizmat qiladi.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi Mustaqillik yillarida yoshlarni madaniyat muassasalarida san'at va amaliy ijodiyot sohalarini uzluksiz o'zlashtirib borish asosida ijtimoiy faolligini oshirish usullari va yo'nalishlarini o'rganish hisoblanadi. Ana shu maqsadni amalga oshirish maqsadidan kelib chiqib, tadqiqotda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- yoshlarni ta'limdan tashqari vaqtda tarbiyalashning nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish;
- ta'limdan tashqari vaqtda tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berish;
- badiiy havaskorlik to'garaklarning tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq qilish;
- badiiy havaskorlik to'garaklarida san'at va ijod dialektikasini o'rganish;
- badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlarning san'at sohasini o'zlashtirib borish omillarini yoritib berish;
- badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sirini aniqlash;
- badiiy havaskorlik to'garaklarining yoshlar madaniy-ma'naviy kamolotidagi o'rnini yoritib berish;
- to'garaklar faoliyatini amaliy mazmuniy tahlil qilish;
- badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlarning badiiy barkamolligini tarbiyalash va ijtimoiy faolligini oshirib borish imkoniyatini o'rganish.

**Mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili.** Mavzuga oid chop etilgan adabiyotlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Madaniyat muassasalari faoliyatini tadqiq qilishga oid tadqiqotlar.

## 2. Yoshlarni ta'limdan tashqari bo'lgan badiiy havaskorlik to'garaklari faoliyatiga oid asarlar.

**Birinchi guruhga** oid adabiyotlarda ko'proq mustaqillik davrida o'zbek milliy madaniyatidagi islohotlar va bu madaniy jarayonlarda madaniyat muassasalaridagi o'zgarishlar haqida fikr yuritilgan. Jumladan, S. Abduxoliqov<sup>2</sup>, N.Ortiqov<sup>3</sup>, N.Sagdullayev va M.Aminjonova<sup>4</sup>, I.Jabborov<sup>5</sup>, A. Mavrulov<sup>6</sup>, V.Alimov<sup>7</sup>, Q.Usmonov,<sup>8</sup> N. Musayev va N. Azimov<sup>9</sup>, U. Qoraboyev, G'. Soatov<sup>10</sup> va boshqalar o'z asarlarida ko'proq o'zbek milliy madaniyati tarixi va mustaqillik yillaridagi madaniy hayotda yuz bergan o'zgarishlar haqida so'z yuritganlar. Madaniyat muassasalarining faoliyati va ulardagi o'zgarishlar haqida bir qator tadqiqotlar olib borildi<sup>11</sup>.

**Ikkinchi guruhga** oid adabiyotlarga yoshlarning ta'limdan tashqari badiiy havaskorlik faoliyatini shakllantirish borasida yaratilgan asarlar, tadqiqotlar kiradi<sup>12</sup>.

Ammo yuqoridagi tadqiqotlar tahlilidan mustaqillik yillarida ta'limdan tashqari bo'lgan madaniyat muassasalarining tarbiyaviy imkoniyatlari, yoshlarning san'at va ijodiy barkamollikka erishish va ularni san'at va amaliy ijodiyot sohalarini uzluksiz o'zlashtirib borish asosida tarbiyalash kabi bir qator muhim masala va muammolar tahlil qilinmagan.

---

<sup>2</sup> Абдуҳолиқов С. Маданият тарихи ва унинг масаласи. – Тошкент, 1992.

<sup>3</sup> Ортиқов Н. Маънавий: Миллий ва умуминсоний қадриятлар. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1997.

<sup>4</sup> Сағдуллаев Н., Аминжонова М. Маданиятимиз тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.

<sup>5</sup> Жабборов И. Ўзбеклар турмуш тарзи ва маданияти. – Тошкент, 2003.

<sup>6</sup> Маврулов А. Маданият ва тафаккур ўзгаришлари. – Тошкент: “Адолат”, 2004; ўша муаллиф. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: O'zbekiston, 2008.

<sup>7</sup> Алимов В ва бошқалар. Маданиятшунослик – Тошкент: 2006.

<sup>8</sup> Усмонов Қ ва бошқалар. Маданиятшунослик. – Тошкент, истисод-молия, 2008

<sup>9</sup> Мусаев Н., Азимов А. Маданиятшунослик. – Тошкент, 2011

<sup>10</sup> Қорабоев У. Маданият масалалари. – Тошкент: 2009.; Қорабоев У., Соатов Ф. Ўзбекистон маданияти. – Тошкент: Тафаккур-бўстони, 2011.

<sup>11</sup> Алимасов В.А. Ўзбекистон Республикасининг бозор муносабатларига ўтиш шароитида маданий-маърифий муассасалар ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари. Фалс. фан. докт. дис. -Т., 2001; Бекмуродов М. Ташкилот маданияти ва раҳбар маънавияти. – Тошкент., 2001; Алимova Ш.Х. “Маданий-маърифий фаолият асослари”. – Тошкент., 2007; Умаров А. Мутолаа маданияти: шахс, жамият, тараққиёт. – Тошкент, Фан.- 2004.

<sup>12</sup> Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси.Т., “Ўқитувчи”,1996; Рустамова Р. Талаба ёшлар маънавий ахлоқи. – Тошкент., 2008; Эргашев Й. Ёшларнинг маънавий тарбияси. Т.,1999; Орипова Р. Мусиқа тўғараги фаолиятида ўсмирлар миллий ғояни шакллантириш. – Тошкент., 2011; Феруза А. Мусиқа ва инсон маънавият. – Тошкент., 2000 ва бошқалар.

### **Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.**

Bitiruv malakaviy ishi mustaqillik yillarida madaniyat muassasalarida yoshlarning badiiy havaskorlik faoliyati tahliliy asosda yoritildi. Bitiruv malakaviy ishda keltirilgan ma'lumotlardan madaniyat va san'at muassasalarini tashkil qilish va boshqarish yo'nalishiga oid o'quv qo'llanmalar, darsliklar yaratishda, madaniyat muassasalari xodimlari faoliyatida qo'llanishi mumkin

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

- Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda Respublikada olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning o'rni va rolini tahlil etilib, badiiy havaskorlik to'garaklarining yutuq va kamchiliklar aniqlandi va tegishli xulosalarga kelindi;
- O'zbekistonda madaniyat muassasalarining ish faoliyati, o'zgarishlar salohiyati ham ularda tashkil etiladigan badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlarni tarbiyalashdagi imkoniyatlari mavjud ekanligi aniqlandi;
- ta'limdan tashqari bo'lgan madaniyat muassasalarida musiqa va badiiy ijodiy to'garaklar faoliyatida yoshlarning ijodiy mahoratini tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi;
- madaniyat muassasalarida san'at va badiiy ijodga oid to'garaklar faoliyatida yoshlar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlar ko'lami va ularning parametrlari aniqlandi;
- muammoni hal qilish uchun unga ijodiy yondashish, eng qulay shakllar, metodlar, usullar, vositalarni izlash, mazmunini aniqlash orqadi samarali pedagogik tizim ishlab chiqildi.

**Bitiruv malakaviy ishi** kirish, 2 ta bob, 4 ta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iboratdir.

## **I BOB. YOSHLAR IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.**

### **1.1. Madaniyat va san'at muassasalarida ta'limdan tashqari faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari**

Jamiyat ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda tarbiya, ta'lim ishlarining ahamiyati benihoya kattadir. Tarbiya va ta'lim bir biri bilan uzviy bog'langan. Biroq inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi. Umuman tarbiya ta'lim berish jarayonining barcha ma'rifiy tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Har qanday ta'lim tarbiya bilan uyg'unlashgandagina yetuk ma'naviyatga zamin bo'ladi. Afsuski, sobiq sovet davrida ta'lim ishlariga e'tibor berilib, bo'sh vaqtdagi tarbiya yetarlicha shakllantirilmadi.

O'zbekiston respublikasida insonni tarbiyalash va uni ma'rifiy rivojlantirishda aniq strategik yo'nalish belgilangan. Bu yo'nalish har bir odamni shaxs darajasiga yetkazib rivojlantirish va tarbiyalashdir. Bugungi ozod vatanimizda inson o'zini davlatimiz fuqarosi, jamiyatning to'laqonli a'zosi, o'zligini teran anglagan shaxs sifatida namoyon etadi. Mamlakatimizdagi madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etiluvchi turli yo'nalishlardagi havaskorlik ijodiyoti to'garaklari, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlardagi fan va badiiy ijodiyot to'garaklari, mahalla guzarlardagi turli yo'nalishlar asosidagi klublar va uyushmalarning asosiy maqsadi ham insonni to'laqonli shaxs sifatida rivojlantirish, o'zligini buyuk tarix, madaniyatning munosib odami sifatida anglatishdir. Agar ta'lim muassasalaridagi to'garaklar ishtirokchilari aniq bir ijtimoiy qatlam, ya'ni, o'quvchi va talabalardan iborat bo'lsa, madaniyat va turli ijtimoiy muassasalardagi to'garaklar turli aholi qatlamlari vakillaridan tashkil topadi. Mamlakatimizdagi huquqiy asosi qanday bo'lishidan qa'tiy nazar barcha to'garaklar barkamol shaxs tarbiyasiga yo'naltirilganligini e'tiborga olsak, mazkur to'garaklarga aholini, xususan, yoshlarni jalb etishning o'ziga xosligini tahlil etish muhim ahamiyatga egadir.



Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda to'garaklar holati va ularga odamlarni jalb etish ishlari davlatimizning to'laqonli shaxsni rivojlantirishdan iborat keng ko'lamli faoliyatida hali talab darajasiga chiqa olmagan jihatlardan hisoblanib kelmoqda.

Madaniyat va ta'lim muassasalardagi to'garaklarga qiziquvchilarning jalb etilishi xaotik xolatda bo'lib, muayyan tizimga keltirilmagan. Ularning ishi ilmiy asoslarda tartibga solinmagan. O'rganilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, to'garaklar ishtirokchilar asosan ota-onalarining ta'siri (38%), yaqin tanishlari (do'stlari, dugonalari) da'vatlari (32%), o'z ixtiyori (24%), o'qituvchilari tavsiyasi(4%) boshqa sabablar asosida(2%) jalb etilganlar. Ma'lumki, odamning muayyan ijodiyot bilan mashg'ulligi kuchli ichki rag'bat, maqsad va qiziqish asosida yuzaga keladi. Agar to'garaklarga odamlarni o'z ixtiyorlari bilan ishtirok etish har to'rt kishidan birini tashkil etsa, to'garaklarning tarqab ketishi ham shunga mos bo'lishi mantiqiy holdir.

To'garaklarning barqaror ishlashining asosiy omillari quyidagilardir;

- To'garak rahbarining odamlarni ijodiyotga jalb eta olish salohiyati va xarizmatik shaxs ekanligi;
- To'garak tashkil etilgan joyning geografik joylashuvi, ya'ni yaqinligi;
- Transport jihatdan qulayligi;
- Bino va to'garak xonasining shinamligi, xona ob-havosining yaxshiligi;
- To'garak ishini izchil olib borish uchun zarur jihozlar, texnik vositalar bilan qurollanganligi;
- To'garak a'zolari tarkibida kamida to'rtta referent guruhlar mavjudligi;
- To'garak a'zolari o'z ishlarining pirovard natijasini aniq tasavvur etishlari;
- To'garakda qatnashish boshqa sohalarda obro' olishga imkoniyat yaratayotganligi (masalan oilada, ishda, o'qishda, do'stlar davrasida)

- To‘garak a‘zosi guruhda o‘ziga ma‘qul bo‘lgan bir yoki ikkita sherik topa olishi;
- Mashg‘ulot paytida ishtioqchilar yo‘l qo‘yilgan kamchilik, ijrodagi nuqsonlar uchun shaxsga teguvchi tanqid eshitmasligi;
- Mashg‘ulotlar tashkil etishda aniqlik, intizom bo‘lishi, to‘garak a‘zolari o‘rtasida samimiylik hamda rostgo‘ylik ruhining hukm surishi;
- Odamlarning bir-birlariga yordam berishdan zavqlanishi holatining tarkib toptirilganligi;
- Madaniyat yoki ta‘lim muassasalarida bir xil yo‘nalishdagi ikki yoki uchta to‘garak bo‘lishi va ular o‘rtasida sog‘lom raqobatning (go‘yo o‘z-o‘zidan) yuzaga keltirilishi;
- Madaniyat va ta‘lim muassasasi rahbarining to‘garaklar ishiga bevosita qiziqishi, to‘garak ishtirokchilari oldida ularning sevimli to‘garak rahbarini hurmat qilishini bildirib turishi;
- To‘garak ishi natijalarini uzohi bilan ikki oyda jamoatchilik e‘tiborga havalo etilishi; (ko‘rgazmalar, bahs-munozaralar, disputlar, qiyosiy tahlillar, tanlovlar va hakoza shakllarda)
- To‘garak rahbari tomonidan har bir ishtioqchiga uning hali yuzaga chiqmagan, endigina namoyon bo‘layotgan favqulodda iste‘dodi borligini individual suhbatlar orqali anglatish va shunga ishontirish;
- Ikki oydan so‘ng to‘garak ishtirok etuvchini bilim, malaka, kasb xususiyatini oluvchilikdan bilim, kasbiy mahorat elementlarini o‘rgatuvchiga, beruvchiga aylantira olishi; Agar shu xususiyatni, ya‘ni, to‘garak ishtirokchisini bilimlarini iste‘mol etuvchilikdan bilimlarni taklif etuvchilikka aylantirishga qancha qisqa vaqtli erishilsa, to‘garak faoliyat shuncha barqaror bo‘ladi. Masalan, 4-6 yoshdagi bolalar o‘rtasida shaxmat to‘garagini tashkil etgansiz. Bir oy o‘tgandan so‘ng to‘garakning bitta a‘zosi, kam shug‘ullangan ikkinchi bir bolakayga ruh yoki ot qanday yurishni o‘rgata boshlasa. Bilingki, marra sizniki, siz to‘g‘ri yo‘ldan borayapsiz.

Amaldagi tajribaga ko'ra muayyan bir madaniyat muassasasi, mahalla guzari, kollej yoki maktabda biror yo'nalishdagi to'garak ish boshlasa, u haqda ma'lumot odamlar orasida tez tarqalmaydi. Mazkur holatni yaxshilash uchun mahalliy gazeta, radio, e'lonlar, plakatlar vositasida dastavval keng targ'ib etish zarur. Ikkinchi muhim muammo-bu biror to'garakda ishtirok etgan bolaning shu to'garakni bir amallab tugatib bo'lgach boshqa xildagi ijodiyot turiga umuman bormay qo'yishdir. Bunday holatlar kundalik hayotda tez-tez takrorlanib turadi. Buning boisini inson tabiatidagi muhim o'ziga xoslik ya'ni, biror sohada o'zligini to'la namoyon eta olmaslik odamning ijtimoiy jihatdan susayishiga olib kelishi qonuniyatidan izlash lozimdir. Agar e'tibor qilinsa a'lochi o'quvchi fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish sohasida o'zligini to'la namoyon eta olganligi sababli boshqa sohalarda ham, masalan, jamoatchilik ishida ham, badiiy ijodiyotda ham, sportda ham faol ishtirok etadi va birinchilardan bo'lishga erishadi. Shu boisdan ham biror bir to'garak ishiga ilk daf'a rag'bat qilib qatnasha boshlagan shaxsni(u yosh bola bo'ladimi, katta avlod vakilimi qat'iy nazar) alohida e'tiborga olish qiziqishi asosida o'zlashtira boshlagan ishida muvaffaqiyat qazonishga ko'maklashish, ya'ni, o'zligini to'la ro'yobga chiqarishiga imkon berish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur holatni sotsiologiya fanida ekstrapolyatsiya hodisasi sifatida izohlanadi. Ekstrapolyatsiya muayyan natijani boshqa makon yoki sohaga ko'chirib qo'llash deb tarjima qilinadi. To'garakda qatnashgan odam ham shug'ullanish mobaynida birinchilar qatoriga ko'tarilib, odamlarning e'tirofiga sazovor bo'lsa, u boshqa sohada ham ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lishga intiladi. Xullas, bir marta birinchi bo'lib e'tirof etilgan shaxs hech qachon boshqa sohalarda ham ikkinchi bo'lib yurishni o'ziga ma'qul ko'rmaydigan bo'lib qoladi.

Shu boisdan ham yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" asoslab berilgan milliy ta'lim modelining beshta elementi qatorida shaxs omili birinchi o'ringa qo'yilganligi bejiz emasdir. Demak, ta'lim omili insonning hayotda o'zini qanday ijtimoiy maqomda his etishi, o'zini-o'zi baholash darajasini belgilashda favqulodda muhim rol o'ynaydi. To'garaklar ishini

tashkil etishda ham barkamol insonni shakllantirish, shaxsni tarbiyalashdek muxim ijtimoiy vazifa bajarilayotganini chuqur anglash zarurdir.

To‘garak ishini tashkil etishda qanday toifadagi odamlar bilan ish boshlanayotganligi alohida e’tibor berish zarur. Agar katta yoshdagi aholi vakillari bilan bog‘dorchilik to‘garagida faoliyat olib borilsa, ishni kattalarni shu sohadagi bilim va tajribalarini to‘la yuzaga chiqarish, fikr almashish ularga shu sohada bilimi pastligini aytib sha’niga tegmaslik asosida ish boshlash zarur. Chunki kattalardagi qiziqish shunchaki berilish emas, balki hayotiy talablar asosida shakllangan va anglangan ijtimoiy ehtiyojdir. Katta yoshdagi odamlar bilan ishlashda har bir narsaning mohiyatini ochib berish qadrlanadi.

Xuddi shunday ishni 10-12 yoshli bolalar bilan qilganda uslubni tubdan o‘zgartirish talab etiladi. Chunki bolalarni xarakatlantiruvchi kuch – maksimalizm bo‘lib, har ishning tez bajarilishi, aytilgan narsa, yetkazilgan bilimning amaliyotdagi isbotini uzoq kutmasdan ko‘rishga bo‘lgan rag‘bat kuchli bo‘ladi. Shu boisdan ham bolalar ishtirokidagi bog‘dorchilik to‘garaklarida amaliy ishni tezroq namoyon etish, amaliyot mobaynida yuzaga kelgan ko‘plab savollar, ya’ni, urug‘ navlari, vegetatsiya davvri, o‘simliklar oilasi, xujayralar tuzilishi, xar xil daraxtlarni bir-biriga payvand qilish va xakozo savollar doirasida nazariy mashg‘ulotlarni o‘tkazish yaxshi samaralar beradi.

To‘garak ishining muvaffaqiyati mashg‘ulotlarning o‘tkazilish vaqti, joyining qulayligi muloqot madaniyatiga ham bog‘liqdir. Aksariyat odamlar, ba’zi to‘garaklar, klub va ko‘ngilli uyushmalariga boshqa joyda bo‘lmagan imkoniyatlarga ega bo‘lish uchun xam boradilar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra xar uchtdan bir o‘quvchi o‘zi sevgan to‘garakdagi mashg‘ulotning yaqin do‘stlari davrasida o‘tkazilishini, 25 foiz so‘ralganlar esa raxbar va to‘garak a’zolarining samimiyligi va xushmuomilaligini, 16 foiz respondentlar esa bilim olish jarayoni faqat rag‘batlantirish orqali kechishini, 15 foiz bolalar to‘garak mashg‘ulotlarida o‘zlarini erkin xis etishlarini 13 foiz so‘ralganlar esa turli sohadagi internet orqali tez olish imkoniyatlari borligini qayd etdilar. To‘garaklar

faoliyatining samarali kechishida to‘garak a‘zolarining soni xam muhim rol o‘ynaydi. Agar to‘garak a‘zolari soni 15 kishidan oshmasa bu to‘garakda ko‘pi bilan oltita bir-birini yaxshi biladigan referent guruhlar shakllanib, jamoada sog‘lom raqobat va sohani o‘zlashtirish jarayoni samarali kechadi. To‘garak a‘zolarining soni 20-25 kishi bo‘lsa, qatnashchilarning referent guruhlarda uyushuvlari amorf tarzda bo‘lib sag‘lom raqobatni barcha kichik guruhlarda barovar olib borish qiyin kechadi, natijada muayyan kasb, bilimlar yoki sohani o‘zlashtirish samaradorligi pasayadi. To‘garaklarda ishtirok etuvchilarning yosh senzlarini hisobga olishda ularning quyidagi o‘ziga xosliklarini puxta hisobga olish zarurdir. O‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda qayd etilishicha, 11 yoshgacha bo‘lgan bolalarda mustaqil xarakat qilishga intilish, faoliyatga to‘liq berilish kuchli bo‘ladi. Ayni vaqtda ular o‘z ishlari natijalariga tanqidiy yondoshishni xoxlaydilar.

12-13 yoshli bolalar esa o‘z ishlariga tanqidiy yondoshishga moyil bo‘ladilar. Ammo, ish natijalarini obyektiv tahlil qila olmaydilar. Shu boisdan boshqalardan namuna olishga, taqlid qilishga moyil bo‘ladilar. 13 yoshdan yuqori bo‘lgan bolalarda esa abstrakt tafakkur qilish, o‘z dunyoqarashini namoyish etish, milliy o‘ziga xoslikni ro‘yobga chiqarish xoxishi kuchli bo‘ladi. Ayni shu yoshda yoshlikka xos bo‘lgan maksimalizm yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi. Bunday yoshdagi to‘garak a‘zolari fikr-qarashlarni keskin tanqid qilish, mustaqil mulohaza qilish xoxishlarini bo‘g‘ib qo‘yish ularning to‘garak ishidan sevib qolishlariga olib keladi.

Madaniy-ma‘rifiy muassasalarning vazifalari va ular oldiga qo‘yilgan talablar bir-birini to‘ldiradi, boyitadi, tarbiyaviy ishlarni ta‘sirchanligini ta‘minlaydi.

Madaniy-ma‘rifatchilik kasbi inson faoliyatining barcha sohalari singari o‘z xususiyatiga ega, ularning eng asosiy xususiyati madaniy-ma‘rifiy ishlarni hayot bilan mustaqil vatanimizning o‘ziga xos milliy siyosati bilan mustahkam bog‘laganligidir<sup>13</sup>.

---

<sup>13</sup> Alimova SH. Madaniy ma‘rifiy faoliyat asoslari. Toshkent: 2007. B. 34.

Madaniy-ma'rifatchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishli, ishga hamma vaqt ijodiy yondashadigan kishilarni talab etadi.

Bu san'at pedagog odobini egallab olishni, ta'lim-tarbiya ishlarini uddalay boshlashni talab qiladi. Bunday bilim va ko'nikmalar asosida madaniy-ma'rifiy xodimning pedagogik mahorati shakllanadi, uning tarbiyachilik iste'dodi va qobiliyatlari o'stiriladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim malakaviy madaniyatning yana bir muhim ko'rsatgichi – bu psixologik bilimlardir. Faqat psixologik qonuniyatlarini puxta o'zlashtirish, qatnashchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish asosidagina tarbiyavni uyushtirish va uning samarali jarayonini to'g'ri tashkil etish mumkin.

Ota-onalar va jamoatchilik tomonidan bo'sh vaqtni yetarlicha nazorat qilmaslik yoshlar o'rtasida salbiy holatlarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Yoshlar hayot go'zalliklaridan bahra olishga, lazzatlanishga intiladi. Bo'sh vaqt esa ayni muddao. Ammo, yoshlarning bo'sh vaqti mazmunli, rejali tashkil etilmasa ularning hayotini turli zararli illatlar, ya'ni ichkilikbozlik, giyohvandlik, diniy ekstrimizm, terrorizm va hokozolar egallashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida maktabdan tashqari ta'lim muassasalari va ularning faoliyati yetakchi o'rin tutadi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekiston Respublikasida maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 17- moddasida "Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtlari va dam olishlarini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etish"<sup>14</sup> maqsadga muvofiq ekanligi alohida ta'kidlanib, ushbu ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini ta'minlashning iqtisodiy-moddiy asoslari yaratildi.

---

<sup>14</sup> O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. - Toshkent: 2000. - B. 12.

2004-2005 o‘quv yili O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan “Maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini oshirish o‘quv yili” sifatida e’tirof etildi. Shu munosabat bilan “Maktabdan tashqari ta’lim tizimini rivojlantirish hamkorlik dasturi” ishlab chiqilib, unda maktabdan tashqari ta’lim tizimini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligiga urg‘u berildi<sup>15</sup>.

Maktabdan tashqari ta’lim qo‘shimcha ta’lim dasturlari asosida o‘quvchilarning mavjud ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtlari va dam olishlarini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, u bolalar (o‘smirlar) ijodiyoti saroylari, uylari, klublari, markazlari, sport maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar hamda sog‘lomlashtirish muassasalarida tashkil etiladi.

Respublikada uzluksiz ta’lim tizimining muhim va tarkibiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan maktabdan tashqari ta’limni samarali yo‘lga qo‘yish o‘quvchi-yoshlarning tobora ortib borayotgan ijtimoiy-madaniy va ta’limiy ehtiyojlarini qondirish bilan birga ularning individual qobiliyatlarini yanada rivojlantirish hamda iste’dodlarini erkin namoyish etishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

“Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga, yo‘g‘rilgan va ularda oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”<sup>16</sup>.

---

<sup>15</sup> O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. - Toshkent: 2000. - B. 13.

<sup>16</sup> Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat– yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008. B. 4.

Respublikada milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini, ularning hayotiyliigi va ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining navbatdagi yig'ilishida bildirilgan takliflarni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi oshirish to'g'risida"gi qarori asosida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi huzuridagi "Milliy mafkura ilmiy targ'ibot markazi" o'rniga Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ilmiy-amaliy yo'nalishda faoliyat olib boradigan, davlat byudjeti hisobidan moliyalashtiriladigan "Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi" tashkil etilishi va bir qator vazifalarning belgilab berilishi bu boradagi ishlarni bugungi kun talablari darajasida tashkil etish uchun jiddiy asos bo'ldi. Unda milliy g'oya va milliy mafkura masalasi bilan bog'liq dolzarb muammolarni, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ustuvor yo'nalishlarini aniqlash, ularning aholining turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy hurujlarning mohiyatini ochib berish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tavsiya va takliflar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu omil ta'lim tizimidan tashqari muassasalarida amalga oshiriladigan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonlarda yoshlarning tarbiyasiga e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.

Yoshlarni tarbiyalashda oila, maktab bilan bir qatorda madaniyat muassasalarining ahamiyati kattaligini yana shu omil bilan izohlash mumkinki, ularning o'rtacha 40 % unumli vaqti maktabda o'tsa, 60 % maktabdan tashqari bo'sh vaqtga to'g'ri keladi.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini faol tashkil qilish orqali ham ularni ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bahramand etish samarali natijalar beradi. YA'ni yoshlarning ta'limdan tashqari bo'sh vaqti maktab, madaniyat muassasalarida tashkil etiladigan "ma'naviy meros", "ma'naviyat va ma'rifat" tadbirlari va musiqa to'garaklari, xaykaltaroshlik, rassomchilik, badiiy mutoala,



aktyolik mahorati, tikish va bichish to‘garagi, foto-video studiya to‘garagi, sport to‘garaklarida badiiy ijod bilan band bo‘lmog‘i lozim.

Hozirgi vaqtda ma’naviy, madaniy-ma’rifiy ishlarga e’tiborni kuchaytirish orqali turli zararli odatlarga qarshi kurash olib borish davr taqozosidir. Biroq bunday zararli odatlarni yoshlar hayotidan chiqarib tashlash uchun madaniy dam olish tadbirlarini uyushtirib borishimiz lozim. Xususan, yoshlar bo‘sh vaqtda hayotdan tabiiy lazzat olishlari uchun tabiat go‘zalliklaridan, xalq san’atidan, marosimlardan, qolaversa, o‘z ijodiy ishi mahsullaridan bahramand bo‘lsin, ruhiy lazzat olsin. Madaniyat va aholi dam olish markazlari, sport inshootlari faoliyatini yanada yaxshilash va yosh avlodning kun sayin o‘sib borayotgan madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqtini samarali va mazmunli tashkil etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 178-sonli qarori qabul qilindi<sup>17</sup>. Qarorda 3 tipda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etilishi ko‘zda tutilgan, ular:

I tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo‘lgan va kamida 400 o‘rindiqli tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tumanning ma’muriy markazlarida;

II tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo‘lgan va o‘rindiqlar soni 250 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida;

III tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 7 mingdan ortiq bo‘lgan va o‘rindiqlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida tashkil etilishi mumkin.

Ushbu qaror asosida 2013-2014 o‘quv yilidan O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Madaniy dam olish tadbirlari tashkilotchisi” ta’lim yo‘nalishini ochish bo‘yicha taklif berildi.

---

<sup>17</sup> Xalq so‘zi. 2013 yil 26 iyun.

Madaniy dam olish insonning bo'sh vaqtdan oqilona foydalangan holda keng dunyoqarashga ega bo'lishda ma'naviy - estetik jihatdan kamol topishida, jismoniy sog'lom bo'lishida muhim omillardan hisoblanadi.

Dam olish madaniyatini yuksaltirishdan asosiy maqsad — kishilarning madaniy hordiq chiqarishlarini ta'minlash bilan birga, ularni har tomonlama yetuk inson bo'lib kamolga yetishishlariga ko'maklashishdan iboratdir.

Madaniy dam olish va bo'sh vaqtdan oqilona foydalanishning turlari va imkoniyatlari shunchalik ko'pki, ular alohida turkumlarga ajratiladi.

*Birinchi turkumga* dam olishning eng oddiy shakllari — kam harakatli hordiq chiqarish, charchoqni tarqatish faoliyatlari kiradi. Bunday passiv dam olishga ishdan keyin uyda yotib charchoq chiqarish, ko'cha, parklar, xiyobonlardagi o'rindiqlarda, uyda divan, stulda o'tirib hordiq chiqarish, ochiq havoda sayr qilish, mehmonga borish kabilari kiradi. Bu hordiq chiqarishni ba'zida «faoliyatsiz dam olish» ham deyishadi. Vaqti-vaqti bilan shunday «passiv» dam olib turish ham kerak. Lekin asosiy maqsad passiv dam olishga vaqtni kamroq sarflab, ko'proq vaqtni faol dam olishga sarflash kerak.

*Ikkinchi turkum* dam olish shakllari madaniy-ma'naviy boyliklarni egallash, ya'ni kitob, gazeta, jurnallarni mutolaa qilish, radio va televideniye dasturlarini tinglab, tomosha qilish, teatr, kinoteatr va klublarda namoyish etiladigan kinofilm, spektakl va badiiy-ommaviy sahnalarni tomosha qilish kabilardir.

Yoshlarning ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarini qondirishda nashriyotlar, ijodiy uyushmalar, ko'ngilli jamiyatlar, san'at va madaniyat muassasalari muhim rol o'ynaydi. Ular foydalaniladigan ish shakllari rang-barang: ma'ruza, axborot, suhbat, siyosiy o'qish, konsultatsiya, seminar, munozara, konferensiya, viktorina, ko'rgazma, konkurs, ijodiy uchrashuvlar, savol-javob kechalari, og'zaki jurnal, tematik kecha, konsert, spektakl, ommaviy tomoshalar, xalq sayillari, bayramlar, raqs kechalari, festival, diskotekalar, ekskursiya va hokazo. Ularning asosiy guruhlariga uzluksiz bilim olish va malaka oshirish, jamoat ishlari, havaskorlik ijodi bilan shug'ullanish, sport bilan mashg'ul bo'lish, do'stlar bilan o'zaro muloqotda bo'lish, san'at asarlaridan bahramand bo'lish va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya yoʻnalishi orqali yoshlarda oʻzlikni anglash, vatanparvarlik, milliy gʻurur, milliy odob, fidoyilik fazilatlari, eng asosiysi esa ijodiy kobilyat shakllantiriladi.

Oʻquvchilarning boʻsh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida ularning qoʻshimcha taʼlim olishiga koʻmaklashgan holda, 89 foiz mahallada (jami mahallalar soni 11400 tadan ortiq) tashkilotchi-pedagog ishlamoqda. Ular mahalla qoʻmitalari bilan birgalikda oʻsmirlar bilan yashash joylarida maktabdan tashqari ishlarni olib bormoqda.

Xullas, taʼlimdan tashqari qoʻshimcha taʼlim tizimi yanada keng rivojlantirilishi lozim. Bunda madaniyat va sanʼat muassasalarining moliyaviy imkoniyatlari va aholining mazkur muassasalar xizmatlari uchun toʻlov layoqatining pastligi bu boradagi cheklanishlarga asosiy sabab boʻlmoqda. Yoshlarni tarbiyalash hozirgi kun uchun muhim va dolzarb ekan ularning boʻsh vaqtini maroqli dam olishi va ulardan unumli foydalanishda madaniyat va sanʼat muassasalarining oʻz imkoniyatlaridan toʻlaqonli foydalanishiga sharoit yaratilishi kerak

## **1.2. Madaniyat muassasalarining tarbiyaviy imkoniyatlari**

Yoshlarni tarbiyalashda koʻplab madaniy-maʼrifiy muassasalar, yaʼni madaniyat uylari, madaniyat saroylari, muzeylar, kutubxonalar, madaniyat va istirohat bogʻlarining oʻziga xos imkoniyatlari mavjud. Madaniy- maʼrifiy muassasalarining imkoniyatlaridan foydalanmasdan joylarda insonlarni tarbiyalab boʻlmaydi, chunki bu muassasalar xalq orasida maʼnaviy, ijodiy faoliyat olib boruvchi oʻziga xos markaz hisoblanadi.

Yoshlar maʼnaviy tarbiyasidagi muammolar maʼnaviy qashshoqlik, fikr torligi, hudbinlik, insofsizlik, adolatsizlik, imon-eʼtiqodsizlik, nopoklik, mehr-oqibatsizlik kabi illatlarni rad qilish insonlarni yuksak madaniyat va milliy maʼnaviy qadriyatlarga tayangan siyosatni qaror toptirish yoʻli bilan bartaraf etish, madaniy maʼrifiy muassasalarining ham bosh vazifasiga aylanishi kerak.

Milliy istiqlol mamlakatimizda demokratik jamiyat barpo etish uchun juda katta va muhim ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy asos yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatimiz hukumati va jamiyat a'zolari tomonidan olib boriladigan madaniy-ma'rifiy faoliyatsiz mustaqillikni mustahkamlash mumkin emasligi to'g'risida xulosaga kelinishi istiqlolni real haqiqatga, bajarilishi kafolatlangan muayyan ijtimoiy hodisaga aylantirdi. Jamiyatda ro'y berayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, axloqiy-mafkuraviy islohotlar o'z takomiliga faqat madaniy yo'llar tufayligina yetishi mumkinligi barchaga ayon bo'lmoqda.

Ma'naviy omillarning hozirgi kunda ustuvor yo'nalish kasb etganligi jamiyatda ro'y berayotgan demokratik jarayonlar tufayli ham sodir bo'lmoqda. Darhaqiqat madaniyat demokratiyani yanada jonlantiradigan, unga ijodiy kuch bag'ishlaydigan, pirovard natijada jamiyat hayotida chuqur ijobiy o'zgarishlar paydo qiladigan ijtimoiy kuchdir, ularning uyg'unligi odil, adolatli davlatning asosidir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatiga alohida e'tibor berilishining bosh sabablaridan biri O'zbekiston hukumatining mazkur masalaga o'ziga xos tarzda munosabatda bo'lishdir. Zero, mamlakat Prezidenti Islom Karimov tomonidan yaratilgan yangi ijtimoiy-falsafiy tizim, eng avvalo ma'naviyatga va ma'rifatga asoslanadi. "Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot – jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat, ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli va jonidir"<sup>18</sup>.

O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining mustaqillik yillarida yanada takomillashib borishi evolyusion-tadrijiy asosda rivojlanib bordi. Xususan, istiqlolning dastlabki yillarida madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatidagi ustuvor yo'nalish sovetlar tizimi davridan meros bo'lib qolgan kommunistik mafkuraga asoslangan aqidaparastlikdan xalos bo'lish bo'lgan bo'lsa, 90-yillarning o'rtalariga kelib bu jarayon madaniyat maskanlarining sof siyosiy "tashviqot"idan asta-sekinlik bilan qaytishi asosida yuz berdi.

---

<sup>18</sup> Karimov I.A. Ilm-u fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi umumiy yig'ilishida so'zlangan nutq. 1994 yil 7 iyul: Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – Toshkent: 1996. 2-tom. – B. 261.

90-yillarning ikkinchi yarmi esa, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida mazmunan takomila yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Shu o'rinda 1996 yil 9 sentabrda mamlakat Prezidenti tomonidan imzolangan "Ma'naviyat va ma'rifat" jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risidagi farmoni alohida ahamiyatga molik bo'lganligini qayd etish lozimdir. Farmonda ta'kidlanganidek, "ma'naviy-ma'rifiy ishlarga e'tiborsizlik kelajagi buyuk oliy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadimiz ro'yobi uchun mutloqa ziddir"<sup>19</sup>.

Yuqoridagilardan xulosa qilib qayd etish kerakki, madaniy-ma'rifiy muassasalar, xususan, klublar, madaniyat uylari va madaniyat saroylari, kutubxonalar faoliyatini tubdan yaxshilash, ularning samaradorligini oshirishdek juda muhim vazifa mamlakatimiz rivojlanishining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi. Sovetlar davrida madaniy-ma'rifiy muassasalardan farqli o'laroq, istiqlol yillarida ushbu madaniyat maskanlarining ish uslubi o'zgardi. Ayniqsa, bunday muassaalarning maqsad va vazifalarini aniqlab olish juda muhim edi. Shu asosda madaniy-ma'rifiy muassasalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tadbirlar o'tkazish asnosida keng fuqarolar ma'naviy kamolotiga hamda jamiyat ijtimoiy-ma'naviy va axloqiy yakdilligiga erishishdan iborat bosh maqsadning aniqlab olinishi mustaqillik talablariga mos kelardi.

Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda aholining bo'sh vaqtini samarali o'tkazishni tashkil etish, asosiy e'tiborni madaniyat-ma'rifat hamda milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkuraga xos tadbirlarga ustuvorlik berish, jamiyat a'zolarining ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini tashkil etish, shu asosda ularning ma'naviy-ijodkorlik tashabbuslarini to'xtovsiz amalga oshirib borishi, shu turkumdagi tadbirlarni o'tkazish asosida kishilar ijtimoiy faolligini oshirish, ulardagi sustkashlik, loqaydlik kabi salbiy illatlarni bartaraf etish aholining umumiy bilimdonlik saviyasini oshirish kabi qator vazifalarni hal etish mumkin edi.

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy faoliyat juda keng jabhali bo'lib, uning eng ishonchli va ommaviy shakli xalq badiiy ijodiyoti bilan bog'liq edi. Ushbu shakl

---

<sup>19</sup> Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish sari. – Toshkent, 1998. – B. 328.

mustaqillik yillarida ham klub faoliyatining asosiy yoʻnalishi boʻlib qoldi. Mamlakatimiz boʻylab madaniyat ishlari vazirligiga qarashli klub muassasalari qoshidagi badiiy jamoalar sonining muttasil oʻsib borganligini koʻrish mumkin. Masalan, agar 1991 yilda bunday dastalar jamoalar va uyushmalar soni 13248 tani tashkil etgan boʻlsa<sup>20</sup>, 1994 yilga kelib ularning soni 13574 taga yetdi<sup>21</sup>.

Bunday ijobiylikning asosiy sababi, birinchidan istiqloq tufayli joylarda milliylikning, ayniqsa, madaniyat sohasida milliy hududiy xususiyatlarga eʼtiborning kuchayishi, jamiyat aʼzolarida ijtimoiy madaniy faoliyatning ortib borishi boʻlsa, ikkinchidan, ushbu jamoalar sonining ortib borishiga koʻp jihatdan oʻzbek xalqining maʼnaviy-maʼrifiy masalalarga azaldan eʼtibori balandligi imkon berdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi xalq badiiy ijodiyotini tobora takomillashtirish, ularning xalqchilligini koʻtarish borasida talay ishlarni amalga oshirdi. Chunonchi vazirlik hayʼatining 1992 yil 2 noyabrdagi “Xalq havaskorlik jamoasi”, “Namunali jamoa” unvonlarini qayta tasdiqlash toʻgʻrisidagi qarorida bunday jamoalar xalq orasida keng madaniy-maʼrifiy faoliyat olib borayotganligi taʼkidlab oʻtildi. Shu yili “xalq havaskorlik jamoalari” va “namunali” unvonlari boʻlgan jamoalar faoliyati qaytadan koʻrib chiqildi. Ular ijodiy sinovlardan oʻtkazildi. Bunday sinov “xalq ijodi va madaniy-maʼrifiy ishlar jumhuriyat markazi” tomonidan amalga oshirildi.

1992 yilda 254 ta havaskorlik xalq jamoalari oʻrtasida oʻtkazilgan koʻrik asosiy eʼtibor ularning faoliyatidagi milliylikka eʼtibor qaratildi. Koʻrikda sahna liboslari, cholgʻu asboblari, moddiy texnik jihozlarning salmogʻi masalasi xodimlar bilan taʼmilanganlik holati bunday jamoalar ijodiy faoliyatini baholashning eng muhim mezonlari sifatida eʼtirof etildi. Ijodiy sinov guruhlarining qaroriga asosan mavjud nizom talablariga javob bera olmaganligi uchun Respublika boʻyicha 16 ta jamoaning “xalq havaskorlik jamoasi” unvoni bekor qilindi. Ayniqsa, Andijon shahrining “Umid”, “Doʻstlik”, Qashqadaryo

---

<sup>20</sup> Madaniyat muassasalarning 1990-1991 yillaridagi faoliyatining asosiy koʻrsatkichlari. – Toshkent: 1991. – B. 4.

<sup>21</sup> Madaniyat muassasalarning 1994-1995 yillaridagi faoliyatining asosiy koʻrsatkichlari. – Toshkent: 1995. – B. 8.

viloyatining “Feruz” kabi jamoalari faoliyati istiqlol talablariga mos kelmasligi ta’kidlandi<sup>22</sup>.

Masalaga aynan shu tarzda munosabatda bo‘linishi xalq havaskorlik badiiy ijodiyotini yanada rivojlantirish imkonini berdi. Buning natijasida badiiy havaskorlik dastalari, uyushmalari, asosiy e’tiborni madaniyatdagi milliylikka qarata boshladilar. 1992-1993 yillarda Respublikaning barcha viloyatlarida badiiy-havaskorlik jamoalarning ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi. Bundan maqsad ularning faoliyati bilan istiqlol g‘oyalarining qay darajada mutanosib ekanligini aniqlashdan iborat edi. Xususan, 1993 yil fevral oyida Sirdaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan badiiy havaskorlik jamoalar ko‘rik- tanlovi bo‘lib o‘tdi<sup>23</sup>.

O‘zbekiston hukumati mustaqillik yillarida mamlakatda olib borilgan madaniy siyosatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, hududiy demokratik holatlarga ham e’tibor berdi. Aholining katta qismi qishloq joylarda istiqomat qilishini e’tiborga olgan holda madaniy-ma’rifiy faoliyat yurgizilishi O‘zbekistonda adolatli madaniy siyosatning yaqqol ko‘rinishi edi. Shuning uchun ham, qishloq madaniyat uylari, saroylari, klub muassasalari sonini ko‘paytirish, ularning ish samaradorligini oshirish mazkur sohadagi faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari sifatida baholanishi mumkin.

1991 yil Madaniyat vazirligiga qarashli klub muassasalari 2737 tani tashkil etgan bo‘lsa, ularning soni qishloq joylarda 2250 ta edi. Bunday hol ushbu klub muassasalarining jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni va rolini jiddiy ravishda takomillashtirishni talab etadi. Gap shundaki, sho‘rolar davrining mafkuraviy ta’siri ayniqsa qishloqda kuchli edi. Kishilar ongidagi sovetlar mustabid tizimiga oid qarashlar nuqtai nazarlarini bartaraf etishda esa aynan mazkur muassasalargina jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi.

Madaniyat ishlari vazirligi, xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar Respublika ilmiy-uslubiyoti markazi tomonidan aholiga madaniy xizmat ko‘rsatish

---

<sup>22</sup> O‘z R MDA M 7-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 12-varaq

<sup>23</sup> “Sirdaryo haqiqati” gazetasi. 1993 yil 28 yanvar

faoliyatini boshqarish uslublarining yangi modelini aks ettiruvchi “Qishloq madaniyati markazi Nizomi”ni ishlab chiqishi ijobiy hal bo‘ldi.

Ushbu Nizom asosida Farg‘ona viloyatining Oxunboboyev tumani hokimligi bilan kelishilgan holda Qumtepa qishloq Kengashi hududidagi Rishton qishlog‘ida Respublikada birinchi bo‘lib, “Qishloq madaniyati markazi” tashkil etildi. Markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashkiliy masalalar viloyat madaniyat ishlari boshqarmasi va tuman hokimligi tomonidan tezkorlik bilan hal qilinishi, Vazirlik va Respublika ilmiy-uslubiy markazlari zarur amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatishlari natijasida 1993 yil sentabr oyida “Qishloq madaniyat markazi” yangi qurilgan binoda ish boshladi. Markaz tarkibiga ixtiyoriy ravishda qishloq kengashi hududidagi 40 ga yaqin muassasalar va tashkilotlar kiritildi, bir necha yirik korxonalar va muassasalar markazga homiylik qilishiga tayyorligini bildirdi. Davlat bankining mahalliy bo‘limida markazning maxsus joriy hisobi ochildi.

Mazkur “Qishloq madaniyat markazi” faoliyati 1993 yil 23 oktabridagi majlisida muhokama etildi va markaz “Nizomi” tasdiqlandi. Tashkil etilgan Qumtepa qishloq madaniyat markazi tomonidan o‘tkazilgan madaniy-ma‘rifiy tadbirlar yuksak saviyada bo‘lganligi bilan izohlanadi. Ayni paytda, ular yuqori samara berib, qishloq aholisining ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish, milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, aholining bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, yosh avlodni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga istiqloqlarning tub mohiyatini anglatish kabi dolzarb vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. To‘plangan tajriba va ularning natijalari qishloq joylarda madaniy-ma‘naviy ishlarni boshqaruv borasida samarali faoliyat ko‘rsatayotgan yangicha idora etish modeli vujudga kelganligini ko‘rsatdi.

“Qishloq madaniyat markazi” tom ma‘noda qishloqda madaniy-ma‘rifiy ishlarni muvofiqlashtiruvchi tizimga asos soldi. Shuning uchun ham ushbu tashabbus tezlikda Respublikaning deyarli barcha viloyatlariga yoyildi. O‘zbekiston Madaniyat ishlari vazirligining madaniy-ma‘naviy ishlar va xalq ijodiyoti va madaniy-ma‘rifiy ishlar Respublika ilmiy uslubiyoti markazi



mutaxassisleri tashkil etgan maxsus kengashlari, seminarlar, muloqotlar va ommaviy axborot vositalari orqali olib borilgan targ'ibot ishlari yaxshi samara berdi. Bu ish, ayniqsa, Andijon viloyatida samara berdi. Xususan, viloyat madaniyat ishlari boshqarmasining tashabbusi bilan bu yerdagi bolalar jamolari, havaskorlik uyushmalari texnik ijodiyoti amaliy kurslari faoliyatidagi boshboshdoqlik bu yerda tashkil etilgan qishloq madaniyat markazlar tufayli bartaraf etildi. Natijada, 1994 yilda Andijon viloyati qishloq joylarda hammasi bo'lib, 1463 ta uyushmalar faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ulardagi ishtirokchilar soni 19707 kishini tashkil etgan<sup>24</sup>. Viloyatda madaniyat ishlari Vazirlik va kasaba uyushmalari tasarrufidagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish masalalarining hal etilishi ham "qishloq madaniyat markazi" tufayli sodir bo'lganligini ijobiy holat deb baholash mumkin<sup>25</sup>.

O'zbekistonda qishloq joylardagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining takomillashuvi ko'p jihatdan yuqorida ta'kid etilgan markazlar tufayli sodir bo'ldi. Xususan, 1993 yilda Samarqand, Qashqadaryo viloyatlarida 2 tadan, Namangan viloyatida 3 ta yangi "qishloq madaniyat markazi" tashkil etilgan bo'lsa, 1994 yilning o'zida Respublika bo'yicha 33 ta shunday markazlar faoliyat ko'rsata boshladilar.

O'rganilayotgan davrda madaniy-ma'rifiy ishlarning mustaqillik talablariga javob beradigan istiqloolni ma'naviy-mafkuraviy jihatdan mustahkamlashga imkon beradigan yangi shakllari, usullari paydo bo'ldi, mavjudlari esa yanada takomillashtirildi. Masalan, 1995 yilda Samarqand viloyati tumanlari madaniyat kunlari festivallarini o'tkazish an'anasiga asos solindi. Unga asosan, kelishilgan rejaga muvofiq barcha tumanlar o'z hududdagi madaniyat muassasalarini ishini tartibga solishi, ish shakli, usullarini takomillashtirishi san'atga yangi qadam tashlab kirib kelayotgan iste'dodlarni topishi, ularning san'atidan keng ommani bahramand bo'lishini ta'minlashi lozim edi. Bu festivalda ayniqsa, Pastdarg'om, Urgut, Chelak, Bulung'ur tuman madaniyat muassasalari faol ishtirok etdilar.

---

<sup>24</sup> Madaniyat muassasalarining 1994-1995 yillaridagi faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari. – Toshkent: 1996. – B. 19.

<sup>25</sup> "Andijonoma" gazetasi. 1999 yil 14 sentabr

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy ishlar ko'p jihatdan tashabbus va havaskorlik asosiga qurilgandir. Bu narsa madaniyat, san'atga qiziqish bilan munosabatda bo'layotganlarni izlab topish, madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil etishda ular mehnatidan foydalanishni talab etadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, uslubiy ishlar samaradorligini oshirish borasida ham talay ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, turli ilmiy-uslubiy talablar asosida olib borishga muvofiqlashtirishga harakat qildilar. Xususan, bu borada Surxondaryoda ham ayrim ma'naviy – ma'rifiy va tashkiliy ishlar amalga oshirildi. 1994 yildan bu yerda madaniy-ma'rifiy ishlarning ijtimoiy nufuzini oshirish, madaniyat muassasalari ish samaradorligini ko'tarish maqsadida barcha tumanlarda ilmiy-uslubiy anjumanlar tashkil etildi. Bunday anjumanlarda madaniyat xodimlariga o'zgartirilgan sharoitda madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyati o'rgatildi, bu narsalar viloyat televedeniyesi, viloyat va tumanlar vositalarida ommaviy ravishda hamda muttasil sur'atda berib berildi. "Surxon tongi" gazetasida madaniyat xodimlari ish usul va uslublarini yangilashga oid maqolalar chop etilib turildi. Sherobod tumani "Bilaguzuk" va Qiziriq tumani "Qo'ng'iroq" folklor-etnografik dastalarining bukletlari tayyorlanib, namuna sifatida viloyat madaniyat muassasalariga tarqatildi va ilmiy, uslubiyat markazida ko'rgazmaga qo'yildi"<sup>26</sup>.

Biroq, Surxondaryo viloyatida bu borada qator kamchiliklar mavjud edi. Ayniqsa, klublar, boshqa madaniyat muassasalarining soni, ularning aholiga to'g'ri keladigan soni bo'yicha ko'rsatikichlari juda past edi. Masalan, 1995 yilgi ma'lumotlarga binoan viloyatda 157 ta klub muassasalari bo'lib, ularning 110 tasi qishloq joylarida joylashgan edi. Bir klub muassasasiga to'g'ri keladigan aholining soni 10,7 ming, jumladan qishloqdagi bir klub muassasasiga 11,4 mingtani tashkil etgan holda, bu raqam bo'yicha viloyat respublikada (Qashqadaryo viloyatidan istisno) eng oxirgi ko'rsatikichga ega edi<sup>27</sup>.

---

<sup>26</sup> O'z R MDA M 7-fond, 1-ro'yaxat, 147-ish, 8-varaq

<sup>27</sup> Qarang Ma'naviy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining 1994-1995 yillardagi asosiy ko'rsatikichlari. T., 1996. 22-bet.

Bunday hol viloyatdagi vaziyatni tezlikda tuzatishni talab etardi. Ayniqsa, badiiy havaskorlik jamoalari ishini yaxshilash lozim edi. Viloyat madaniyat ishlari boshqarmasi, tuman madaniyat bo'limlarining harakatlari tufayli havaskorlik jamoalari tashkil etila boshlandi, ular fuqarolar o'rtasida keng targ'ib qilindi. Bunday tadbirlar o'z samarasini berdi va 1996 yilda viloyatda 542 ta badiiy havaskorlik jamoalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, ularda 2258 nafar yoshlar ijod qildilar.

Ushbu davrga kelib Surxondaryo viloyatida 4 ta xalq drama teatri, 2 ta qo'g'irchoq xalq teatri, 13 ta ashula va raqs xalq dastasi, 2 ta folklor-etnografik xalq dastasi, 8 ta oilaviy dastalarga iste'dodli yoshlar birlashganlar va turli yoshdagi hamda kasbdagi fuqarolar bilan hamkorlikda san'atning rang-barang janrlarida faoliyat ko'rsatdilar. Mazkur uyushmalar, dastalar turli ko'rik- tanlovlar, bayramlarda xalqimiz hayotidan asrlar davomida mustahkam o'rin olgan biroq, sovetlar mustabid tizimi yillarida unutilib ketgan qo'shiqlar, laparlar, raqsar, liboslarni qaytadantikladilar. Jumladan, Boysun tumanidagi "Shalola" ashula va raqs dastasining repertuaridan o'rin olgan "Lolacha", "Xadursi", "Kelinchak", "Yaxshi yigit" kabi laparlar alohida ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga "Boysun" folklor-etnografik xalq dastasi, "Quralay" bolalar folklor-etnografik dastarlari hamda unutilayotgan qadriyatlarni tiklashda faol ishtirok etdilar<sup>28</sup>. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan madaniy-ma'rifiy ishlar orasida istibdod yillarida kuchli mafkuraviy iskanjalarga olingan milliy qadriyatlarni tiklash masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston hukumati ushbu masalaga katta e'tibor berdi. Ayniqsa, Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3-yanvardagi qarori asosida "Meros" dasturining qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

"Meros" dasturi asosida 1995 yil oktabrida va 1996 yilning martida O'zbekiston hunarmandlarining birinchi va ikkinchi ko'rik yarmarkalari o'tkazildi. Ushbu tadbir katta ahamiyatga ega bo'lib, u madaniy merosimizni tiklash, rivojlantirishda o'ziga xos o'rin egalladi. Birinchi ko'rik yarmarka

---

<sup>28</sup> O'zR MDA, M 7-fond, 1-ro'yxat, 147-ish, 8-10-varaqlar.

ishtirokchilaridan 30 ta xalq dastasi YUNESKONing sertifikatlari va Faxriy yorliqlari sovrindorlari bo'ldilar. Ushbu dastur doirasida Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishloar markazi tomonidan ham qator ishlar amalga oshirildi. Bular jumlasiga "To'y marosimlari qo'shiqlari", "Alla", "Navro'zi olam muborak", maqomchilar ko'rik - tanlovlari va ommaviy sayillarni misol sifatida ko'rsatish mumkin<sup>29</sup>.

O'zbekiston hukumati tomonidan 90-yillarning ikkinchi yarmidan maxsus dastur asosida olib borilgan "Meros" harakati milliy madaniy qadriyatlar, an'analarni tiklash borasida juda jiddiy amaliy faoliyat bo'ldi. Bunday harakat sovetlar mustabid tizimi darvida "millatchilik ko'rinishi", "eskilik" deb nomlangan sof milliy madaniyatning yanada tiklanishiga imkon berdi. "Meros" dasturi asosida respublikaning barcha viloyatlarida hududiy dasturlar ishlab chiqildi. Ularda milliy-hududiy o'ziga xoslik, hududiy-ruhiy holat o'rganildi, madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishda unga amal qilindi.

Ayniqsa bu borada Samarqand viloyatida katta salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xalq ijodi, madaniy – ma'rifiy, ilmiy - uslubiyat markazi 759 madaniyat muassasalariga ushbu dasturni amalga oshirish borasida amaliy yordam ko'rsatdi. Dasturni amalga oshirish borasida "Markaz" qoshida 3 ta bo'lim tashkil etildi. Xalq ijodi, madaniy – ma'rifiy, ilmiy – uslubiyat bo'limlaridan iborat amaliy – tadqiqiy guruhlar viloyat hududida azaldan mavjud bo'lgan, biroq mustamlakachilik yillarida unutilgan xalq badiiy-an'anaviy ijodiyotini tiklash borasida salmoqli ishlarni bajardilar. Ushbu bo'limlar tomonidan madaniyat va san'at muassasalariga yordam tariqasida 1998 yilda 12 nomdan iborat turli qo'llanma, tavsiyanomalar, uslubiy hujjatlar tayyorlanib, jo'natildi.

Samarqand viloyatida ko'rilgan tadbirlar natijasida madaniy-ma'rifiy ishlar ancha rivoj topdi. 1998 yilda bu yerda 2076 ta to'garak, uyushma va jamoalarda 38201 nafar xavaskor san'atkorlar birlashdilar. Birgina ashula va raqs jamoalarining soni 2-madaniyat uyi qoshida tashkil etilgan "Nihol" ashula va raqs ansambli faoliyati ayniqsa samarali bo'ldi. L.Mo'minov, M.Meliboyeva,

---

<sup>29</sup> O'zR MDA, M 7-fond, 1-ro'yxat, 503-ish, 34--varaq.

G.Shoniyozova, G.Aliyeva, D.Rustamova, B.Bozorboyev, I.O'rolov, B.Hakimov, R.Jo'rayev kabi qator havaskor san'atkorlar chiqishlari doimo qiziqish bilan kutib olindi.<sup>30</sup> Bunday misollarni respublikaning barcha viloyatlari bo'yicha keltirish mumkin, zero 90-yillarning boshlari madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini qayta qurish, ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan asta-sekin demokratik tartiblarga ko'nikish davri bo'lgan bo'lsa, 90-yillarning ikkinchi yarmi esa ushbu sohada konseptual yangilanish bosqichi bo'ldi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda badiiy havaskorlik to'g'arkalariga keluvchilar asosan yoshlar bo'lib, ularning qiziqishlarini pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etish madaniy-ma'rifiy faoliyatning asosini tashkil etadi.

Chunki, madaniy-ma'rifiy muassasalarda yoshlarning estetik did, his – tuyg'ularini tarbiyalashda, ularni ahloqiy ruhda barkamol qilish hamda ijtimoiy faolligini oshirishda muhim o'rin egalaydi. Bugungi kunda jamiyatimiz oldida juda keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy masalalar turibdi. Shular markazida tarbiyaviy vazifalardan biri, yoshlarni ijtimoiy faol qilib tarbiyalashni kuchaytirish va amalga oshirishdir. Bu ko'rinishda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar aholi turli qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda unga ijodiy yondashish zarur.

Yoshlarning ma'naviy olami, ahloqiy qiyofasi, jismoniy tomondan barkamolligi, o'zaro hamdo'stlik va vatanparvarlik kabi umuminsoniy fazilatlarni qaror toptirishda badiiy havaskorlik to'garaklarining faoliyatlari nihoyatda kattadir. Bu muassasalarda uyushtirilayotgan ommaviy- siyosiy, ahloqiy, g'oyaviy, tarbiyaviy ishlarning samaradorligi hamda mazmunini yaxshilash esa, madaniyat xodimlaridan tashkilotchilik mahoratini, tashabbuskorlikni amalda qo'llashni talab etadi.

Xalqimiz o'rtasidagi hamjihatlikni o'zaro madadkorlikni va boshqa yaxshi umuminsoniy fazilatlarni har qachonkidan ham chuqurroq anglashimiz, ko'z qorachig'imizdek avaylab asrashimiz va targ'ib etishda samarali foydalanishimiz lozim. Haqiqatda bugungi jamiyatimizni demokratiyalash va ijtimoiy adolat

---

<sup>30</sup> Samarqand viloyat madaniy-ma'rifiy ishlar bo'yicha hisobot. Samarqand. 1999 59-varaq

mavqeida turgan barcha sogʻlom kuchlarni jiddiy va amaliy negizda birlashtirish, provardida milliy nizolarni yoʻqotish mumkin. Shu maqsadda, barcha badiiy havaskorlik faoliyatini qaytadan koʻrib chiqish, hozirgi sharoitga moslab, yangicha mazmun bilan boyitish, ish uslubini tub oʻzgartirish davr talabidir. Respublikamizdagi madaniy-maʼrifiy muassasalar – madaniyat markazlari, saroylarida va istirohat bogʻlarida, yoshlik uyushmalarida va mahallalarda badiiy havaskorlik toʻgaraklari ishtirokida tashkil etilayotgan vatanparvarlik kechalari, festivallar, ommaviy sayillar hamda sport bayramlarining ahamiyatini alohida taʼkidlash joizdir.

Respublikamizda yoshlar ittifoqi va yoshlarga bagʻishlangan jamgʻarmalarining rasman tashkil topishi, bu boradagi ishlarning aniq yoʻlga tushishi uchun, shu sohadagi ishlarni yaʼnada jonlantirishda sharoit yaratib, amaliy ish boshlash lozim. Keyingi yillarda madaniy-maʼrifiy muassasalar faoliyatida yoshlarni ijtimoiy faollashtirish borasida sezilarli oʻlga qavrab siljish roʻy bermoqda. Masalan, respublikamizda madaniyat maskanlari qoshidagi toʻgaraklarda millat va elatlarni unutilib ketgan urf-odatlarini, anʼanalari, sanʼati qaytadan tiklandi.

Bugungi kunga kelib esa madaniyat maskanlari yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda ular oʻrtasida tarbiya ishini tashkil etishda bir qancha ibratli ishlarni amalga oshirmoqda. Chunonchi, madaniy-maʼrifiy muassasalar joylarda yoshlar ittifoqi bilan birgalikda madaniyat va istirohat bogʻlarida uyushtirilgan “Oilada bola tarbiyasi”, “Uch avlod”, “Abadiy oʻgitlar”, “Yigitlik burchim” kabi madaniy tadbirlarda qatnashayotgan havaskorlik toʻgaraklari qatnashchilari, yaʼni yoshlarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda komil inson boʻlib, tarbiyalanishida yaqindan yordam bermoqda.

Respublikamizda tashkil etilgan yoshlar uyushmalari yaqinda tuzilgan boʻlishiga qaramay, shu qisqa vaqt ichida ular orasida Milliy istiqlol gʻoyalari va mafkurani tashviqot qilishda katta xissa qoʻshmoqda. Madaniy markazning asosiy maqsadi, u yerga tashrif buyurgan barcha yoshlarning qiziqishlarini qondirishga ilm sohasidagi salohiyatlarini rivojlantirishga oʻz xissalarini qoʻshish. Madaniyat

markazlari xodimlari yoshlarning faollashuviga oid bo'lgan barcha matbuot xabarlari va qo'llanmalarni keng doirada sharhlab berish yaxshi yo'lga qo'yishgan.

Yoshlarni ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalashda Respublikamizda tashkil etilgan milliy- baynalminal klublari xavaskorlik to'garaklari alohida o'rin egallaydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlari Respublikamizda tashkil etilgan milliy markazlar bilan birgalikda yoshlar tarbiyasiga oid har xil mavzularda uchrashuvlar, suhbatlar, bahs-munozaralar, ommaviy bayramlar uyushtirilmoqda. Bu tadbirlarda to'garaklar qatnashchilarining ishtirok etishlari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Masalan, Mirzo Ulug'bek nomli madaniyat va istirohat bog'ida qardosh qozoq, qirg'iz, tojik millatlari bilan birgalikda ularning bayramlari nishonlanmoqda.

Bunday markazlar Respublikamiz poytaxti Toshkentda va ommaviy xalq sayillarining sermazmun o'tishida salmoqli hissa qo'shmoqda. Yoshlar bir-birini hurmatini joyiga qo'yishga ahloq va vatanparvarlik tarbiyasi ular hayotida alohida o'rin egallaydi.

Ma'lumki, ijtimoiy faollik bo'lmagan joyda taraqqiyot va kamolot, ezgulik va ro'shnolik, haqiqat, halollik, diyonat kabilar ildiz otishi mumkin emasligi amaliy jihatdan to'la isbotlangan.

Ijtimoiy faollikning rivojlanishi barkamollik kalitidir.

Shuning uchun O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov, yoshlar ongida vatanparvarlik tarbiyasini qaror toptirishga alohida e'tibor bermoqda. Chunki u istiqlol va taraqqiyot yo'lining asosiy prinsiplaridandir.

Inson ruhiyatida va pedagogik qarashlarida yana bir narsa borki vatanparvarlik yoshlarni dadil olg'a qadam tashlashga doimo da'vat etib turadi.

I.A.Karimov vatan tuyg'usi va ularning ma'no-mazmuniga alohida to'xtaladi. Chunonchi, Respublikamiz yoshlarining milliy va madaniy an'analarga, ularning manfaatlariga mos keladigan haqiqiy vatanparvarlik prinsiplari qaror toptirish, ijtimoiy faolligini oshirish va joylarda shu mavzu bo'yicha tadbirlarni uyushtirish,

hamda shu tadbirlarda yoshlarning faol ishtiroklarini ta'minlash davr talabi deb ta'kidladi.

O'zida tug'ilgan, uning zaminida yashayotgan, o'qib mehnat qilayotgan har bir farzandlarimiz milliy mansubligidan va e'tiqodidan qa'tiy nazar, Respublikamizning teng huquqli yoshlari bo'lishga munosibdir, degan insonparvarlik va vatanparvarlik qoidasini ro'yobga chiqarishdir.

O'zbekiston mustaqilligini ta'mirlash, yangicha tuzumni barpo etishda ijtimoiy va ma'naviy kafolatlar muhim o'rin tutadi. Chunki, bu narsa yoshlar ongiga va tafakkuriga singishi lozim.

Ularni ijtimoiy faol qilib tarbiyalashda uning o'tmishi: madaniyat tarixi, chegarasi muayyan davrlardagi mavqei, ota-bobolarimizning jahon fan va madaniyat sohasidagi o'rni haqida ma'lumot berish muhim ahamiyatga ega. Ana shundagina "Bugun Vatanning har bir asl farzandi o'zini ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etadi va bundan faxrlanadi". Bu vazifani ko'proq madaniyat maskanlari xavaskorlik to'garaklari orqali tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O'zbek xalqi asrlar mobaynida avaylab saqlanib, sayqal topib kelgan o'z milliy urf-odatlari, udum va an'analari, g'ururi, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi, huquqiy ongi, e'tiqodi, ma'naviy dunyosi bilan ajralib turadi.

Yoshlar tarbiyasi- ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosni o'zi bir katta hazina. Vatanparvarlik g'oyasining tub mohiyatini, ma'no va mazmunini dastlab ziyolilar, farzandlarimiz yaxshi bilishlari kerak. Shuningdek, ular butun kuchini nashaqqatlar bilan erishilgan mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlash ishiga safarbar etmoqlari zarur.

Umuman olganda vatanparvarlik tarbiyasi jamoatchilik ishi va madaniy-ma'rifiy muassasalar vazifasidir.

Vatanni sevish deganda xalqning madaniyati tarixini bilishga intilish, uni targ'ib qilishni ham anglash lozim. Ajdodlarimizning yashash tarzi, e'tiqodi, madaniy va tarixiy yodgorliklar, ular kim tomonidan qurilgani va qaysi me'mor san'atiga mansubligi, adabiyot va san'at tarixi fan va fan arboblari haqidagi ma'lumotlar, ularning yaratgan ilmiy asarlari, xalq ijodi namunalari, ta'lim –



tarbiya an'analari va shu kabilarni xalq ongiga singdirish kabi madaniy-ma'rifiy tadbirlar milliy g'ururni yanada shakllantirishga, rivojlantirishga ilhomlantiradi, xalq ijodkorligini tarkib toptirishga ruhlantiradi.

I.A. Karimov vatanparvarlik va uning tub mohiyati va ahamiyati haqida yozadi: O'zbekiston fuqorosining vatanparvarlik – bu qayta o'zgarishlar yo'lini ko'rsatuvchi, ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaydigan yo'lchi yulduz, ishonchli komposdir. “O'zbekistonga, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlariga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish, Respublikamizning kuch qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish va ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi. Kimki, millatning madaniyati tarixidan ajdodlari qoldirgan barcha meroslardan hamma sohadagi an'analaridan faxrlansa bilsa, o'tmishda vatani va xalqi boshiga tushgan fojiviy taqdiridan achinsa, u vatani va xalqi kelajagi uchun nurli istiqloq yo'lida fidoiy bo'lish orzusida yashaydi, mehnat qiladi. Yoshlarni ijtimoiy faol qilib tarbiyalash jarayonida madaniy – ma'rifiy muassasalar quyidagi tadbirlarni amalga oshirish shart:

“Ijtimoiy faollashuv” tadbiri rejasi va dasturini tuzib chiqish:

- shu tadbir bo'yicha ssenariy tuzish va joyini aniqlash;
- tadbirni o'tkazishda ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada yaxshilash;
- madaniyat maskanlarida ijtimoiy faollashuga bag'ishlangan doimiy baxslar uyushtirish;
- badiiy havaskorlik jamoalari tuzish va ularni joylardagi ommaviy tadbirlarda muttasil qatnashish, chiqishlarini tashkil etish;
- Respublika madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy metodik markazi faoliyatini shu ishga yo'naltirish;
- badiiy havaskorlik to'garaklarining maxsus konsertlarini tashkil qilib, joylarda aholiga taqdim etib borish;
- to'garak qatnashchilari bilan maxsus kechalar o'tkazib borish;

- uzviy va doimiy olib borilgan tarbiyaviy ishlar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, yoshlarning ijtimoiy faolligi ravnaq topib rivojlanadi, yuksalanadi.

Madaniyat maskanlari faoliyatini kuchaytirish bo‘lajak savodli va bilimli yoshlarni tarbiyalashning eng maqbul yo‘lidir. Kadrlarni tayyorlash juda ko‘p masalalarni oydinlashtiradiki, ularni hal qilish mamlakatimiz madaniy- ma’rifiy ishlarning kelajagi ravnaqi uchun nihoyatda zarurdir.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. A. Karimov ko‘rsatib berganidek, tayyorlash dasturining bir necha bosqichdan iborat tizimini quyidagi asosiy bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- barcha madaniyat muassasalarida yuqori salakali kadrlar tayyorlash uchun uzluksiz fan va ishlab chiqarish yutuqlaridan samarali foydalanish;
- badiiy havaskorlik to‘garaklarining domiy faoliyat ko‘rsatish mexanizmini ishlab chiqarish;
- ixtisosliklar, malaka darajasiga ko‘ra mutaxasislarga bo‘lgan umumdavlat va mintaqaviy talablarning istiqbolini aniqlash;
- madaniyat xodimlarini va mutaxasislarini qayta tayyorlash;
- madaniy – ma’rifiy muassasalarning badiiy havaskorlik to‘garaklari qatnashchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish;
- yoshlarni ijtimoiy faol, mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash;
- madaniy – ma’rifiy muassasalarni davlat tomonidan moliyaviy va moddiy- texnikaviy to‘liq ta’minlash meyorlarini yetarli va uning mexanizmini takomillashtirish;

Madaniyat muassasalarida badiiy havaskorlik to‘garaklari tizimini bunday shaklda yo‘lga qo‘yish yoshlarning erkin va ixtiyoriy ravishda o‘z qobiliyatlarini amalga oshirishga imkoniyat beradi. Respublikamizda ishlab chiqilgan dasturlar madaniy – ma’rifiy muassasalar islohatining va yoshlarning ijtimoiy faollashuv tomonlarini qamrab olgan.

## **II.BOB. BADIY HAVASKORLIK TO‘GARAKLARI YOSHLARNING IJTIMOIYLASHUVIGA TA’SIRI**

### **2.1. Badiiy havaskorlik to‘garaklarining ish jarayonida ijodiy va tarbiyaviy xususiyatlari.**

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Mustaqillik davrida asrga tatigulik tarixiy g‘alabalarni qo‘lga kiritdi. Voqealar rivoji, islohotlar shiddati, yangilanishlar odimlari shunchalik tezlashdiki, bunday ommaviy safarbarlikni, ommaviy yangilanishlarni insoniyat tarixi ko‘rmagan. Mamlakatimizda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy islohotlar o‘z samarasini berib, odamlarning dunyoqarashi tubdan o‘zgardi. Yurtimizda tinchlikning barqaror saqlanayotganligi,

iqtisodiy ishlab chiqarishning rivojlanayotganligi, milliy davlatchiligimizning mustahkam poydevori yaratilganligi har bir fuqaro hayotining barcha jabhalarida, xususan, madaniyat va san’at sohasi ijodkorlarining badiiy ijodida ham o‘zning ijobiy natijalarini ko‘rsatib turibdi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va ijodiy muhit qat’iy hukm surmokda. Barqarorlik har qanday ijodiy faoliyatning zamini va zaruriy sharti. Madaniyat vazirligi tasarrufidagi badiiy ijodiy jamoalar so‘nggi ikki yil mobaynida yana ikkita yirik badiiy-ijodiy jamoalarga, ya’ni o‘zining mustaqil mulkiga ega yuridik shaxs bo‘lgan, operativ boshqarish huquqi bilan mustaqil balansiga va O‘zbekiston Respublikasi banklarida o‘z hisob raqamlariga, ramzi, shtamlari va maxsus blankalariga hamda Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhriga ega bo‘lgan “O‘zbekiston badiiy jamoalari ijodiy birlashmasi” va “O‘zbekiston milliy simfonik, kamer va xalq cholg‘u orkestrlari jamoalari” birlashmalari hisobiga ko‘paydi.

Badiiy ijodiy jamoalar deganda o‘z tarkibida bir nechta ijodiy guruhlarga umumiy rahbarlik qiladigan, madaniyat va san‘at sohasining turli yo‘nalishlari bo‘yicha mamlakatimiz aholisiga madaniy xizmat ko‘rsatishni muvofiqlashtiradigan hamda madaniy-ma‘rifiy va ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etadigan badiiy ijodiy jamoalar birlashmasi tushuniladi.

Masalan, O‘zbekiston badiiy jamoalari ijodiy birlashmasida jami 395 nafar xodim ishlaydi. Birlashma tarkibida 10 ta badiiy ijodiy jamoalar faoliyat yuritadi. Ijodiy birlashmada xalqimiz ardog‘idagi taniqli san‘atkorlar O‘zbekiston xalq artistlari Munojot Yo‘lchiyeva, Matluba Dadaboyeva, G‘ofur va G‘ulom Eshjonovlar, Gavhar Matyoqubova, Qodir Mo‘minov, O‘zbekiston xalq hofizi Soyibjon Niyozov, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artistlar Og‘abek Sobirov, Sobirjon Mo‘minov, Gulbahor Erqulova, Zarif Azizovlar, shuningdek, birlashma tarkibida G‘anijon Toshmatov nomidagi dutorchilar ansambli, Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli, “Bulbulcha” bolalar xor jamoasi, “Lazgi” ashula va raqs ansambli, Respublikada xizmat ko‘rsatgan xor amoasi, Xorazm maqomchilar ansambli kabi qator taniqli jamoalar bor. O‘zbekiston badiiy jamoalar ijodiy birlashmasi “Navro‘z”, “Mustaqillik”, Vatan himoyachilari kuni, 8 mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni, O‘qituvchilar bayrami kabi umumxalq bayramlarida muntazam ravishda ishtirok etadi. Mamlakatimizning chekka hududlarida aholiga madaniy xizmat ko‘rsatadi.

*O‘zbekiston badiiy jamoalari ijodiy birlashmasining maqsad va vazifalari:*

Respublikada mumtoz musiqa, milliy raqs va estrada, an‘anaviy ijrochilik san‘atlarini rivojlantirish, taniqli san‘at namoyandalarini, ijodiy badiiy jamoalar va alohida ijrochilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish;

mamlakatimizning barcha hududlaridagi musiqa, raqs, an‘anaviy ijrochilik yo‘nalishlarini asrash, avaylash, shu asosda badiiy jamoalar faoliyati samaradorligini oshirish, mustaqillik ma‘naviyatini va istiqloq g‘oyalarini tarannum etuvchi, xalqimizga estetik, zavq bag‘ishlovchi zamonaviy o‘zbek an‘anaviy ijrochilik maktabini yanada rivojlantirish;

birlashma tarkibidagi badiiy jamoalarning tashkiliy, moliyaviy, moddiy-texnik masalalarini hal qilish, ularni musiqa asboblari, raqs liboslari, zamonaviy texnika va zarur anjomlar bilan ta'minlash;

musiqa, raqs, an'anaviy ijrochilik san'atini O'zbekiston xalqi, chet davlatlarda keng targ'ib qilish, badiiy jamoalarning keng ko'lamli dasturlarga asoslangan samarali gastrol-konsert faoliyatini uyushtirish, reklama-tijorat ishlarini yo'lga qo'yish;

badiiy jamoalar, alohida ijrochilar tomonidan madaniy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish va servis sohasini rivojlantirish;

musiqa, raqs, an'anaviy ijrochilik san'ati sohasida gastrol-konsert faoliyatini muvofiqlashtirish, aholining estetik talab va takliflarini o'rganish;

qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan madaniy va ijodiy hamkorlik qilish;

“Ustoz-shogird” an'analarini rivojlantirish, Birlashma tarkibidagi badiiy jamoalar hamda aloqida ijrochilar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, ijodiy hamkorlik va tashabbuskorlikni ragbatlantirish. Professional badiiy-ijodiy jamoalar bilan bir qatorda mamlakatimizda badiiy havaskorlik jamoalaridan tarkib topgan 70ga yaqin folklor-etnografik jamoalari, 128 ta ashula va raqs xalq ansambllari, 66 ta havaskorlik xalq teatrlari kabi badiiy jamoalar Madaniyat va aholi dam olish markazlarida faoliyat olib bormoqda.

SHo'rolar davrida sobiq madaniyat uylari va klub muassasalarida asosiy ishidan ajralmagan holda badiiy ijodning o'zlari yoqtirgan turli yo'nalishlarida havaskor san'atkorlar faoliyat yuritgan. Ular dastlab faqat yirik shaharlar: Toshkent, Samarqand, keyinchalik Andijon, Namangan, Kattaqo'rg'on, Yangi Marg'ilonda xonanda, sozanda, raqqosa, badiiy so'z ustasi bo'lib, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etishgan. O'zbek xalqi umumiy madaniyatining yuksalishi, oliy va o'rta maktablarning ko'payishi, ommaning savodxon bo'lishi, shahar va qishloqlarda klublarning tashkil qilinishi va boshqa omillar tufayli 20-yillar shrtasida ishchi-yoshlar teatrlari, 30-yillarda drama va musiqa, keyinchalik

estrada va sirk tomoshalari, turli ashula va raqs ansambllari, orkestrlar paydo bo'ldi. 1959 yildan ularning eng yaxshilariga "xalq teatri" kabi unvonlar berila boshlandi. 1968 yildan O'zbekistonning eng yaxshi havaskorlik jamoalari xorijiy mamlakatlarga gastrolga chiqa boshladi. O'zbekistonning mustaqilligi tufayli badiiy havaskorlikda ham yangi davr boshlandi. Tarixga, ma'naviy merosga, xalq ijodiyotiga e'tiborning kuchayishi o'z navbatida badiiy havaskorlik rivojiga ham turtki berdi. Ayniqsa, milliy bayram, navro'zning tiklanishi va mamlakat miqyosida o'tkazilishi natijasida navro'z bilan bog'liq o'yinlar, tomoshalar, marosimlar tiklandi. Bunda malakali san'atkorlar bilan bir qatorda badiiy havaskorlik jamoalari, xalq ijodkorlarining xizmatlari katta bo'ldi. Dunyoga mashhur o'zbekning beshik va tandiri representativ ro'yxatga nomzod sifatida berilsa, o'ylaymizki, bu betakror merosimiz mazkur ro'yxatdan joy oladi. Mazkur vazifalarni amalda bajarish uchun tegishli tashkilot va muassasalar bilan aloqalar kuchaytirilishi, ular bilan yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilishi, rejalar hamda kutilayotgan natijalar yanada aniqlashtirilib, say-harakatlar bir tarafga yo'naltirilishi lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hukumatimiz tomonidan so'nggi yillarda nomoddiy madaniy merosga bag'ishlab amalga oshirilayotgan samarali ishlar natijasida ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelayotgan mazkur meros qayta tiklanadi va kundalik hayotimizga tatbiq etiladi. Fikrimizcha, bu borada respublikamizdagi mavjud zamonaviy musiqa va san'at maktablari ta'lim tizimida kengroq foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Xalq ijodi mehnatkash xalq ommasi tomonidan yaratilib, og'izdan og'izga, avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib tobora takomillashib, sayqal topib taraqqiy etgan ijod mahsulidir. Unda xalqning mehnat faoliyati, ijtimoiy va maishiy hayoti, turmushi, tabiat haqidagi tushunchalari, madaniyati, e'tiqodi, orzu-istaklari, his-tuyg'ulari va tafakkurining boy olami, baxtli va adolatli zamon haqidagi o'ylari o'z ifodasini topadi.

O'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan xalq badiiy havaskorlik jamoalari quyidagi turlarga bo'ladilar:

- 1.Xalq og‘zaki ijodi;
- 2.Xalq musiqasi, folklor musiqasi;
- 3.Xalq raqs san‘ati;
- 4.Xalq teatri;

*Xalq musiqasi folklori* — iste’dodli xalq ijrochilari — sozanda, hofiz, baxshi, xalfalar tomonidan qo‘shiqlari muhim o‘rin tutadi. Inson hayotining boshlanishidan to so‘nggi xotimasigacha bo‘ladigan har bir marosim, to‘y, bayram va boshqa voqealarda ijro etiladigan qo‘shiqlar mavjud. Jumladan, bola tug‘ilishi, tarbiyalanishi, ilk bor sochini oldirishi, tishi chiqishi birinchi mustaqil qadam tashlashi marosimga bag‘ishlangan qo‘shiqlar, nikoh to‘ylarida aytiladigan yor-yor, lapar, o‘lanlar, motam marosimlarida aytiladigan marsiya, yig‘i, yo‘qlov kabi aza qo‘shiqlar oilaviy tadbirlarning muhim. Xalqining tabiat va mehnat bayramlari ham maxsus ijro etiladigan qo‘shiqlarsiz o‘tmagan. Ijtimoiy-madaniy faoliyat shakllarini tayyorlashda har bir tadbirga mos xalq qo‘shiqlarini izlab topmoq va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

*Xalq raqs san‘ati* — voqeilikni harakatlar orqali tasvir etadigan ijod turidir. O‘zbek xalqida raqs san‘ati ashula va musiqasi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan va shu an‘ana hozirgacha davom etmoqda. Hozirgi kunda respublikamiz badiiy havaskorlik ijodining eng rivojlangan janri, bu - ashula va raqs ansambllaridir. Xalq raqs san‘atidan vosita sifatida ijtimoiy-madaniy tadbirlarda foydalanish katta ahamiyatga ega.

*Xalq teatri san‘ati* — asosan, so‘z va harakat san‘atidan tashkil topgan. U qadimdan hzida qo‘shiq musiqasi, qiziqchilik, akrobatika, nayrangbozlik, ko‘zboylag‘ichlik kabi elementlarni birlashtirgan. Dastlabki paytlarda u ovchilik, dehqonchilikda uchraydigan voqealarni obrazli harakatlar (o‘yinlar) orqali tasvirlash asosida vujudga kelgan va xalq bayramlari marosimlarida rivojlanib, xalq teatr san‘ati darajasiga ko‘tarilgan. Jamiyat taraqqiyoti davomida xalq teatr san‘ati ijrochilari bir necha sohalar bo‘yicha ixtisoslasha borishgan.

O‘zbek an‘anaviy xalq xavaskorlik teatrining quyidagi asosiy turlari shakllangan:

1. Masxarabozlik va qiziqchilik.
2. Dorbozlik, nayrangbozlik (sirk san'ati).
3. Qo'g'irchoqbozlik.

Keyingi vaqtlarda dorbozlik va masxarabozlik san'atiga qiziqish ortib bormoqda. Ko'proq unga yoshlar jalb etilmoqda. Tomosha repertuarlarining rang-barangligi, ijrochilarning mahorati ortayotganligi quvonarli holdir.

Badiiy havaskorlik ko'p qirrali faoliyat bo'lgani uchun unda juda ko'p usullardan foydalaniladi.

O'zbek xalqining boy va rang-barang folklor merosiga egaligi uning etnik tarkibining serqatlamligi va tarixiy taraqqiyot yo'lining dunyo tamadduni o'choqlaridan bo'lmish Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig'ida kechganligi bilan ham chambarchas bog'liqsir. Chunki, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hudud qadim-qadimdan xalqlarning buyuk ko'chishlari hamda turli siyosiy, madaniy, iqtisodiy munosabatlardagi yuksalish va tushishlarda bir chorraha vazifasini o'tagan. Bu borada birgina Buyuk Ipak yo'lining ushbu hududni deyarli to'liq kesib o'tganligini eslashning o'zi kifoY. O'z navbatida, qaysi yerdan savdo yo'llari o'tsa, o'sha joyda iqtisodiy-siyosiy va madaniy yuksalish jarayonlari kechganligi tabiiydir.

O'rta Osiyo hududi, jumladan, ikki daryo oralig'ida paydo bo'lgan etnoslar va davlatlar tarixining butun dunyo tarixi va taraqqiyotida muhim o'rin tutishi ham bu hududning har jihatdan qulay sharoitda joylashganligi bilan belgilanadi. Respublikamiz Birinchi Prezidenti I. Karimov «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida «Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda» deb ta'kidlab o'tganlar.

O'zbek xalqi uchta katta etnik birikmadan tashkil topgan: bular qorluq, qipchoq va o'g'uz qabila birlashmalaridir. Ma'lumki, bu uch qabila birlashmalari boshqa hududlarda ham turkiy xalqlarning shakllanib, tarkib topishida muhim rol o'ynagan. Ayni shu jarayonlar xalq og'zaki poetik ijodida ham yaqqol ko'zga



tashlanib turadi. Xususan, xalq ommasining badiiy ijodiy- amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan an’anaviy moddiy va nomoddiy madaniyatning xalq og‘zaki badiiy ijodi (folklor), xalq musiqasi, xalq teatri (tomosha san’ati), xalq o‘yinlari (raqs), xalq tasviriy va amaliy bezak san’ati, xalq arxitekturasi hamda shu kabi ijodiyot turlarida bu holat yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi.

O‘zbek xalqi tom ma’noda boy madaniy meros yaratdi. Jumladan, uning folklori hajm va badiiyati bilan ham alohida e’tiborga loyiq bo‘lib, kelajak avlodni har tomonlama g‘oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashda ahamiyati beqiyosdir. O‘zbek xalq poetik ijodi uzoq asrlar davomida shakllanib, rivojlanib bugungi kungacha yetib kelgan. Folklor asarlarining asosiy xususiyatlaridan biri - yaratuvchilik va ijro jarayonlarning o‘ziga xos ko‘rinishlarga egaligidir

Mustaqillikka erishganimizdan buyon o‘tgan qisqi muddatda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy va san’at yodgorliklari, jumladan, xalq og‘zaki ijodi namunalarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish, ulardagi umumbashariy va milliy g‘oyalarning zamon talablariga mos ravishda yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash yo‘lida ushbu merosdan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Muhtaram I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, istiqlol tufayli xalqning azaliy turmush tarzi, an’analari, urf-odatlari, ko‘nikmalarini, tabiiy boyliklarini har tomonlama hisobga olib yuksaltirish amalda rivojlantirish imkoniyatlari yaraldi. Birinchi Prezidentimizning milliy qadriyatlarimiz, go‘zal urf-odatlarimizni uzoq asrlar davomida shakllangan boy xalq og‘zaki ijodimizni, ezgulik, mehr-muhabbat bilan yo‘g‘rilgan bayramlarimizni tiklash uchun unga diqqat e’tibor qaratish zarurligini mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq uqtirib kelayotgani va ularga davlat miqyosida keng yo‘l ochib berganligi bejiz emas.

Istiqlol tufayli xalq og‘zaki poetik ijodini rivojlantirishga, xalq yaratgan ma’naviy-madaniy merosni avvalgidek sinfiylik nuqtai nazaridan emas chinakamiga san’at namunalari sifatida chop etish va tahlil etish imkoniyati yaratildi. Xalq donoligining nodir namunalari bo‘lmish fol’klor asarlari mag‘zidagi ezgu g‘oyalar haqida Birinchi Prezidentimiz shunday yozgan: “Qadimgi

ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy til bilan aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopokka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak»,- deganlarida hozirgi o'sib kelayotgan yosh avlod uchun nihoyatda kerakli bo'lgan ma'naviy tarbiya masalasi ko'zda tutilgan edi.

Shunday ekan, komil inson tarbiyasida xalq donishmandligining manbai hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari eng muhim ma'naviy boylik hisoblanadi.

Badiiy so'z san'atining eng qadimgi va uzok tarixga ega bo'lgan sohasi *folklordir*. Mehnat jarayonida inson tajribasining ortishi, nutqining shakllanishi bilan inson ongi rivojlandi, tabiat va jamiyat haqidagi fikr- tushunchalarni obrazlar vositasida tasvirlashga intilish og'zaki ijod paydo bo'lishiga turtki bo'ldi..

*Xalq og'zaki ijodi* - mehnatkash xalq ijodi. Xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi bo'lmish folklor asarlari xalq san'atining boshqa turlaridan (musiqa, teatr, raqs, tasviriy va amaliy san'at hamda boshqalarda) og'zaki so'z san'ati ekanligi bilan "ajralib turadi. U og'izdan-og'izga avloddan-avlodga, davrdan-davrga o'tib, xalqning iste'dodli vakillar ijrosida sayqal topadi. Folklor asarlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha saqlanib qolmay, ijod va ijroda nimalardir o'zgaradi, qayta ishlanib talqin qilinadi, yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyitiladi, tarixiy sharoitga moslashib, shu bilan birga yozma adabiyotga ijobiy ta'siretgan.

Mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish yuzasida so'ngi yillarda ko'plab qaror va farmonlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2013 yil 25 iyundagi qabul qilingan "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 178-son qarori hozirgi zamon talablariga mos, yangicha ish uslublarini joriy etish, jamoatchilikning ma'naviy ehtiyojlarini o'rganish, badiiy ijodni, boshqa xavaskorlik ijodiy tashabbuslarni va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qullab- quvatlash, ularning dam olishini tishkil etishga xizmat qiladi. Mazkur qarorga muvofiq bugungi kunda respublikada **jami 160 ta** madaniyat va aholi dam olish markazlarida ta'mirlash va jixozlash io'lari amalga

oshirilib, foydalanishga topshirildi. Markazlarni ta'mirlash va jixozlash ishlariga **96.6 mlrd.** so'm mablag' sarflandi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlarning Nizomiga muvofiq ularning asosiy vazifalari ikkiga bo'lindi:

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish.

To'garak, studiya va badiiy jamoalarni tashkil etish.

Markazlar ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni, milliy adabiyot va sanatningtaniqli arbolari, sportchilar bilan aholining, shu jumladan yoshlarning estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yunaltirilgan uchrashuvlar, buyurtmalar asosida qiziqarli va maroqli tomoshalar, to'ylar va boshqa tantanali tadbirlar, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o'yinlar bo'yicha musoboqalar, xalq ijodiyoti turlarida tanlov hamda festivallarni o'tkazishni tashkil etilishi ta'minlandi.

Shuningdek, O'zbekistonning nomoddiy madaniy merosi obektlarini saqlab qolish va ko'paytirish, zamonaviy studiyalar va to'garaklarni, ya'ni, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo'li bilan badiiy ijod va amaliy san'atni rivojlantiradi. Internet-studiyalar, elektron resurslar, shu jumladan, axborot-kommunikatsiyalari va xorijiy tillarni o'rganish kurslari tashkil etishdan iborat.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning qobiliyatlari va intilishlarini o'stirish, nazariy bilimlarini mustahkamlab, amalda qullash ko'nikmalarini hosil qilish, kasbiy mahoratlarini oshirishlariga keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

**Madaniyat va aholi dam olish markazlari Nizomiga ko'ra to'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalarining nomlanish va yo'nalishi quyidagicha:**

**I. Badiiy havaskorlik ijodiyoti yo'nalishida:** ashula va raqs, zamonaviy va bal raqslari, folklor-etnografik, xoreografik, teatr san'ati (qug'irchoq, drama va boshqalar), vokal-cholg'u, milliy cholg'u asboblari ijrochiligi (rubob, g'ijjak, nog'ora, doira, tanbur va boshqalar), karnay va surnay, xor va vokal, akkordeonya;

**II. Milliy amaliy san'at yo'nalishida:** o'ymakorlik, to'qish, bichish va tikish (zardo'zlik), pazandalik, musiqa asboblari ta'mirlash;

**III. Nomoddiy madaniy merom to'garaklari yo'nalishida:** lapar, alla, o'lan baxshi, xalfa, maqom halq cholg'u va askiya ijrochiligi;

**IV. Studiyalarni tashkil etishda:** dizayn, teatr-studiya, ovoz yozish studiyasi (faqat Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida), xalq amaliy san'ati va tasviriy san'at studiyalari, qo'g'irchoq studiyasi, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xorijiy tillarni o'rganish hamda "Xamma narsani bilishni xoxlayman" kabi studiyalar;

**V. Ayollar yig'inini tashkil etishda:** ayollar qiziqishlari bo'yicha muhokama uyushmalari.

**VI. Sport tugaraklari yo'nalishida:** shaxmat-shashka, gimnastika (yoga, sheyping, fitnes va boshqalar), "Sog'lomlashtirish" uyushmasi, milliy xalq o'yinlari kabilardan iborat.

To'garak, studiya va badiiy xavaskorlik jamoalari faoliyatini tashkil etishga oid meyoriy hujjat sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-son qarorining 2-ilova bilan tasdiqlangan "**Madaniyat va aholi dam olish markazlari to'g'risidagi Nizom**", O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishari vazirligining 2014 yil 29 oktabrdagi 113-son buyrug'ining 2 ilovasida tasdiqlangan "**Xalq havaskorlik jamoalari**" Nizomi hamda Vazirlikning 2014 yil 7 fevraldagi 108 son buyrug'ining 2 ilovasi bilan hisobot xujjati sifatida tasdiqlangan va Vazirlik tizimidagi madaniyat va aholi dam olish markazlarida yuritish uchun tavsiya etilgan "**To'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini xisobga olish jurnali**" asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari Respublika xalq ijodiyoti markazi tomonidan ishlab chiqilgan "**Madaniyat va aholi dam olish markazlarida to'garaklar tashkil etish metodikasi**" nomli uslubiy qo'llanma ham ko'rsatib o'tish mumkin.

Misol tariqasida 2015-2016 yillarda madaniyat va aholi dam olish markazlarini o'rganish buyicha Respublika ishchi guruhlariga ma'lumotlariga asosan

**“To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini xisobga olish jurnali”** Namangan, Farg‘ona, Sirdaryo, Jizzax viloyatlaridagi ayrim tuman(shahar)laridagi markazlarda mavjud emasligini ko‘rsatmoqda. Hozirda Respublikamizda faoliyat kursatayotgan **894 ta** madaniyat va aholi dam olish markazlarida **4400** ga yaqin to‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari (ularning 387 tasi xalq havaskorlik jamoasi) tashkil etilgan bo‘lib, ularda **6000** nafarga yaqin ishtirokchilar qatnashib kelmoqda. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 189 ta, Andijon viloyatida 346 ta, Buxoro viloyatida 195 ta, Jizzax viloyatida 142ta, Navoiy viloyatida 111 ta, Namangan viloyatida 244 ta, Samarqand viloyatida 932 ta, Toshkent viloyatida 361 ta, Toshkent shahrida 420 ta, Farg‘ona viloyatida 745 ta, Xorazm viloyatida 351 ta, Qashqadary viloyatida 238 ta to‘garaklar faoliyat kursatib kelmoqda.

Yuqorida kursatib utilgan **to‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalarining** 40 dan ortiq yo‘nalish va turlar bo‘yicha faoliyat kursatayotganliklarini tahlil etib kuradigon bulsak, **raqs, ashula, folklor doira, rubob, estrada, gimnastika, shaxmat-shashka**, yunalishlaridagina mavjud xolos.

Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 178-son Qaroriga asosan foydalanishga topshirilgan **160 ta**, markazda **899 ta** to‘garak mavjud bo‘lib, ularning **112 tasi** raqs, **86 tasi** ashula, **84 tasi** rubob, **77 tasi** doira, **46 tasi** estrada, **41 tasi** an’anaviy ijrochilik, **40 tasi** shaxmat-shashka, **38 tasi** folklor, **32 tasi** tikuvchilik, **31 tasi** drama, **23 tasi** rassomchilik, **16 tasi** badiiy o‘qish, **15 tasi** dutor, **14 tasi** gimnastika, **12 tasi** kompyuter, **12 tasi** xor, **11 tasi** g‘ijjak, **10 tasi** fortopiano to‘garaklari tashkil etildi. Vaholanki, foydalanishga topshirilgan markazlardan kelib chiqadigan bo‘lsak, ushbu raqamlar 160 tadan bo‘lish lozim edi.

Bu raqamlar to‘garaklarnig hammasi ham talab darajasida faoliyat ko‘rsatib kelmoqda deya olmaymiz. Ularning ko‘pchiligi nomigagina mavjud bo‘lib, o‘zining doimiy ishtirokchilariga ega emas. Aksariyat markazlarda 4 yoki 5 yo‘nalishdagi to‘garaklar ish olib bormoqda xolos.

Respublikadagi mavjud 894 ta madaniyat va aholi dam olish markazlarida mahalliy byudjet hisobida **1268 to‘garak, studiya va jamoa rahbari shtat birligi** moliyalashtirilgan bo‘lib, o‘rtacha oylik maoshi **400 ming** so‘m hisoblaganda, bir oyda **507 mln 200 ming**, bir yillik **6 mlrd 800 mln** so‘m to‘garak rahbarlari uchun mablag‘ sarf etilmoqda. Bunga javoban, to‘garaklar va undagi pullik xizmat ko‘rsatish faoliyatini yo‘lga qo‘yish natijadoligi qoniqarli deb baholab bo‘lmaydi.

Bugungi kunda Respublikamizda 387 ta **“Xalq havaskorlik jamoasi”**, shunda **32 tasi “Namunali bolalar jamoasi”** unvonga ega bo‘lgan jamoalar mavjud. Jumladan, Farg‘ona viloyatida **48 ta**, Toshkent shahrida **46 ta**, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **42 ta**, Samarqand va Toshkent viloyatlarida **30 tadan**, Surxondaryo viloyatida **28 ta**, Buxoro va Qashqadaryo viloyatlarida **27 tadan**, Namangan viloyatida **25 ta**, Xorazm viloyatida **24 ta**, Andijon viloyatida **19 ta**, Jizzax viloyatida **16 ta**, Navoiy viloyatida **13 ta**, Sirdaryo viloyatida **12 ta** jamoalar faoliyat yuritmoqda. Ularning **136 tasi** ashula va raqs, **61 tasi** folklor-etnografik, **50 tasi** halq teatri, **31 tasi** vokal cholg‘u estradasi, **27 tasi** raqs, **17 tasi** qo‘g‘irchoq tetri, **12 tasi** maqom, **11 tasi** dorbozlik, **11 tasi** sirk, **8 tasi** karnay-surnay, qolgan **12 tasi** esa minyatyura, tasviriy san‘at, opera, xalq filarmoniyasi, milliy estrada hamda dutor xalq ansambllarini tashkil etadi.

Respublika xalq ijodiyoti Markazining tavsiyasiga ko‘ra **2014-2016** yillar mobaynida **22 ta jamoa “Xalq havaskorlik jamoasi” va 7 ta jamoa “Bolalar namunali jamoasi”** unvonlariga ega bo‘ldi. Jumladan, 2014 yilda **10 ta**, 2015 yilda **13 ta**, 2016 yil 1-choragida **6 ta**. Ularning 9 tasi folklor, 6 tasi raqs, 3 tasi sirk, 3 tasi vokal-estrada, 3 tasi karnay surnay, 2 tasi ashula va raqs, 2 tasi teatr hamda 1 tasi askiya yo‘nalishlaridagi jamoalardir.

Barchangizga ma‘lumki, xalq havaskorlik jamoasi unvoni joylarda uch yildan ortiq faoliyat ko‘rsatgan eng namunali va faol jamoalarga beriladi. Ko‘plab jamoalar unvonga ega bo‘lgandan so‘ng ijodiy faoliyati ancha susayib qoladi. Faqatgina o‘tkazib kelinayotgan “Navro‘z”, “Mustaqillik” umuxalq bayramlari,

kasb bayrmi tantanalarida hamda tashkil etilayotgan ko'rik-tanlov, festivallardagina tayyorgarlik ko'riladi xolos.

2014 yil noyabr-dekabr oylarida o'tkazilgan xalq havaskorlik jamoalarining **navbatdagi ijodiy sinovidan Andijon viloyati** Andijon shahrida "Andiana" ashula va raqs ansambli, Bo'z tumani "Afsungar" sirk illyuziya guruhi, **Toshkent viloyati** Bekobod shahar "Yoshlik" xalq vokal ansambli, Angren shahar Rus milliy xalq xor jamoasi, **Jizzax viloyati** Mirzacho'l tumani "Paxta" ashula va raqs xalq ansambli hamda tuman "Xalq xori" xavaskorlik jamoalari o'tmagan. Bundan tashqari 10 dan ortiq jamoalar shartli ravishda ijodiy sinovdan o'tkazilgan.

"Xalq havaskorlik jamoasi" (Bolalar namunali jamoasi) to'g'risidagi Nizomga muvofiq ularning namunaviy shtatlar jadvali tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra **Drama, miniatyura, askiya va qo'g'irchoq teatrlari uchun** – rejissyor, sahnalashtiruvchi rassom, **Xalq cholg'u ansambli uchun** – musiqa rahbari, konsertmestr, **Raqs ansambli uchun** – raqs o'qituvchisi, jo'rnavoz, **Estrada ansambli uchun** – badiiy rahbar, musiqa o'qituvchisi, **Xor, vokal va maqom jamoalari uchun** – xormeyster, jo'rnavoz, **Ashula va raqs hamda folklor-etnografik ansambli uchun** – badiiy rahbar, musiqa rahbari, raqs o'qituvchisi, **Havaskorlik dorbozlik jamoasi va sirk guruhlar uchun** – rejissyor, musiqa rahbari lavozimlari joriy etilgan.

Bugungi kunda faoliyati ko'rsatayotgan 387 xalq havaskorlik jamoalaridan **309** tasida **695 ta** shtat birliklari mavjud. Bu esa bir **yilda 3 mlrd 336 mln** so'm mablag' sarf etilmoqda degani. Ushbu jamoalarning bir yillik ishlab topilgan pullik xizmati tushumi o'rtacha 400 mln so'mni tashkil etomoqda.

**Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, madaniyat va aholi dam olish markazlarida to'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyati qoniqarli tashkil etilyapti deb bo'lmaydi.**

Eng avvalo, madaniyat va aholi dam olish markazlarini pasportlashtirish ishlari hanuzgacha to‘liq amalga oshirilmagan (aniq qilib ko‘rsatilgan savolnomalar to‘g‘ri to‘ldirilmaydi);

“To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini hisobga olish jurnal”lari joylarda to‘liq yuritilmayapti;

To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalarining mashg‘ulot jadvali va o‘quv rejalari aniq emas;

To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari rahbarlarining bilim va tajribalari ularning faoliyatini tashkil etish uchun yetarli malakaga ega deb bo‘lmaydi;

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan to‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari to‘g‘risida keng ommani xabardor etishda zamonaviy reklama vositalaridan foydalanish yuzasida zarur chora-tadbirlar to‘liq amalga oshirilmayapti;

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida qanday to‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish yuzasida aholi xoxish va istaklari so‘rovnomalar asosida o‘rganilmayapti;

Bugungi zamon talablaridan kelib chiqib, tikish-bichish, pazandachilik, go‘zallik saloni, xorijiy tillarni o‘rganish, sog‘lomlashtirish gimnastikasi kabi to‘garaklar faoliyati yulga qo‘yilmagan;

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi xalq havaskorlik jamoalarining pullik xizmat ko‘rsatish yillik rejalari belgilanmagan;

To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari moddiy-texnik bazasi qoniqarsiz ahvolda;



## **Madaniyat va aholi dam olish markazlarida to‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish yuzasidan takliflar:**

Madaniyat va aholi dam olish markazlarini pasportlashtirish ishlarini qisqa muddatda yakunlash;

“To‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini hisobga olish jurnal”lari olish hamda ularni to‘ldirish yuzasidan viloyat markazlari tomonidan seminarlar tashkil etish;

Madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan to‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari to‘g‘risida zamonaviy reklama vositalaridan foydalanish yuzasidan zarur chora-tadbirni ishlab chiqish;

Madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi mavjud xonalardan samarali foydalanish maqsadida bugungi zamon talablaridan kelib chiqib, tikish-bichish, pazandachilik, go‘zallik saloni, xorijiy tillarni o‘rganish, sog‘lomlashtirish gimnastikasi, askiya, boxshichilik, oqin, jirov, karnay-surnay, xalfachilik, o‘lan, lapar, katta ashula, maqom, folklor-etnografik, dorbozlik kabi to‘garaklar tashkil etish;

Shuningdek, madaniyat va aholi dam olish markazlaridagi mavjud to‘garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalarining har chorakda hisobot konsertlarini o‘tkazish.

Madaniyat va ta’lim muassasalardagi to‘garaklarga qiziquvchilarning jalb etilishi xaotik xolatda bo‘lib, muayyan tizimga keltirilmagan. Ularning ishi ilmiy asoslarda tartibga solinmagan. O‘rganilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, to‘garaklar ishtirokchilar asosan ota-onalarining ta’siri (38%), yaqin tanishlari (do‘stlari, dugonalari) da’vatlari (32%), o‘z ixtiyori (24%), o‘qituvchilari tavsiyasi(4%) boshqa sabablar asosida(2%) jalb etilganlar. Ma’lumki, odamning muayyan ijodiyot bilan mashg‘ulligi kuchli ichki rag‘bat, maqsad va qiziqish

asosida yuzaga keladi. Agar to'garaklarga odamlarni o'z ixtiyorlari bilan ishtirok etish har to'rt kishidan birini tashkil etsa, to'garaklarning tarqab ketishi ham shunga mos bo'lishi mantiqiy holdir.

To'garaklarning barqaror ishlashining asosiy omillari quyidagilardir;

- To'garak rahbarining odamlarni ijodiyotga jalb eta olish salohiyati va xarizmatik shaxs ekanligi;
- To'garak tashkil etilgan joyning geografik joylashuvi, ya'ni yaqinligi;
- Transport jihatdan qulayligi;
- Bino va to'garak xonasining shinamligi, xona ob-havosining yaxshiligi;
- To'garak ishini izchil olib borish uchun zarur jihozlar, texnik vositalar bilan qurollanganligi;
- To'garak a'zolari tarkibida kamida to'rtta referent guruhlar mavjudligi;
- To'garak a'zolari o'z ishlarining pirovard natijasini aniq tasavvur etishlari;
- To'garakda qatnashish boshqa sohalarda obro' olishga imkoniyat yaratayotganligi (masalan oilada, ishda, o'qishda, do'stlar davrasida)
- To'garak a'zosi guruhda o'ziga ma'qul bo'lgan bir yoki ikkita sherik topa olishi;
- Mashg'ulot paytida ishtioqchilar yo'l qo'yilgan kamchilik, ijrodagi nuqsonlar uchun shaxsga teguvchi tanqid eshitmasligi;
- Mashg'ulotlar tashkil etishda aniqlik, intizom bo'lishi, to'garak a'zolari o'rtasida samimiylik hamda rostgo'ylik ruhining hukm surishi;
- Odamlarning bir-birlariga yordam berishdan zavqlanishi holatining tarkib toptirilganligi;
- Madaniyat yoki ta'lim muassasalarida bir xil yo'nalishdagi ikki yoki uchta to'garak bo'lishi va ular o'rtasida sog'lom raqobatning (go'yo o'z-o'zidan) yuzaga keltirilishi;

– Madaniyat va ta’lim muassasasi rahbarining to‘garaklar ishiga bevosita qiziqishi, to‘garak ishtirokchilari oldida ularning sevimli to‘garak rahbarini hurmat qilishini bildirib turishi;

– To‘garak ishi natijalarini uzohi bilan ikki oyda jamoatchilik e’tiborga havalo etilishi; (ko‘rgazmalar, bahs-munozaralar, disputlar, qiyosiy tahlillar, tanlovlar va hakoza shakllarda)

– To‘garak rahbari tomonidan har bir ishtirokchiga uning hali yuzaga chiqmagan, endigina namoyon bo‘layotgan favqulodda iste’dodi borligini individual suhbatlar orqali anglatish va shunga ishonirish;

– Ikki oydan so‘ng to‘garak ishtirok etuvchini bilim, malaka, kasb xususiyatini oluvchilikdan bilim, kasbiy mahorat elementlarini o‘rgatuvchiga, beruvchiga aylantira olishi; Agar shu xususiyatni, ya’ni, to‘garak ishtirokchisini bilimlarini iste’mol etuvchilikdan bilimlarni taklif etuvchilikka aylantirishga qancha qisqa vaqtli erishilsa, to‘garak faoliyat shuncha barqaror bo‘ladi. Masalan, 4-6 yoshdagi bolalar o‘rtasida shaxmat to‘garagini tashkil etgansiz. Bir oy o‘tgandan so‘ng to‘garakning bitta a’zosi, kam shug‘ullangan ikkinchi bir bolakayga ruh yoki ot qanday yurishni o‘rgata boshlasa. Bilingki, marra sizniki, siz to‘g‘ri yo‘ldan borayapsiz.

Amaldagi tajribaga ko‘ra muayyan bir madaniyat muassasasi, mahalla guzari, kollej yoki maktabda biror yo‘nalishdagi to‘garak ish boshlasa, u haqda ma’lumot odamlar orasida tez tarqalmaydi. Mazkur holatni yaxshilash uchun mahalliy gazeta, radio, e’lonlar, plakatlar vositasida dastavval keng targ‘ib etish zarur. Ikkinchi muammo-bu biror to‘garakda ishtirok etgan bolaning shu to‘garakni bir amallab tugatib bo‘lgach boshqa xildagi ijodiyot turiga umuman bormay qo‘yishdir. Bunday holatlar kundalik hayotda tez-tez takrorlanib turadi. Buning boisini inson tabiatidagi muhim o‘ziga xoslik ya’ni, biror sohada o‘zligini to‘la namoyon eta olmaslik odamning ijtimoiy jihatdan susayishiga olib kelishi qonuniyatidan izlash lozimdir. Agar e’tibor qilinsa a’lochi o‘quvchi fanlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish sohasida o‘zligini to‘la namoyon eta olganligi sababli boshqa sohalarda ham, masalan, jamoatchilik ishida ham, badiiy ijodiyotda ham,

sportda ham faol ishtirok etadi va birinchilardan bo'lishga erishadi. Shu boisdan ham biror bir to'garak ishiga ilk daf'a rag'bat qilib qatnasha boshlagan shaxsni (u yosh bola bo'ladimi, katta avlod vakilimi qat'iy nazar) alohida e'tiborga olish qiziqishi asosida o'zlashtira boshlagan ishida muvaffaqiyat qazonishga ko'maklashish, ya'ni, o'zligini to'la ro'yobga chiqarishiga imkon berish muhim ahamiyatga egadir. Mazkur holatni sotsiologiya fanida ekstrapolyatsiya hodisasi sifatida izohlanadi. Ekstrapolyatsiya muayyan natijani boshqa makon yoki sohaga ko'chirib qo'llash deb tarjima qilinadi. To'garakda qatnashgan odam ham shug'ullanish mobaynida birinchilar qatoriga ko'tarilib, odamlarning e'tirofiga sazovor bo'lsa, u boshqa sohada ham ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lishga intiladi. Xullas, bir marta birinchi bo'lib e'tirof etilgan shaxs hech qachon boshqa sohalarda ham ikkinchi bo'lib yurishni o'ziga ma'qul ko'rmaydigan bo'lib qoladi.

Shu boisdan ham yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturida" asoslab berilgan milliy ta'lim modelining beshta elementi qatorida shaxs omili birinchi o'ringa qo'yilganligi bejiz emasdir. Demak, ta'lim omili insonning hayotda o'zini qanday ijtimoiy maqomda his etishi, o'zini-o'zi baholash darajasini belgilashda favqulodda muhim rol o'ynaydi. To'garaklar ishini tashkil etishda ham barkamol insonni shakllantirish, shaxsni tarbiyalashdek muxim ijtimoiy vazifa bajarilayotganini chuqur anglash zarurdir.

To'garak ishini tashkil etishda qanday toifadagi odamlar bilan ish boshlanayotganligi alohida e'tibor berish zarur. Agar katta yoshdagi aholi vakillari bilan bog'dorchilik to'garagida faoliyat olib borilsa, ishni kattalarni shu sohadagi bilim va tajribalarini to'la yuzaga chiqarish, fikr almashish ularga shu sohada bilimi pastligini aytib sha'niga tegmaslik asosida ish boshlash zarur. Chunki kattalardagi qiziqish shunchaki berilish emas, balki hayotiy talablar asosida shakllangan va anglangan ijtimoiy ehtiyojdir. Katta yoshdagi odamlar bilan ishlashda har bir narsaning mohiyatini ochib berish qadrlanadi.

Xuddi shunday ishni 10-12 yoshli bolalar bilan qilganda uslubni tubdan o'zgartirish talab etiladi. Chunki bolalarni xarakatlantiruvchi kuch – maksimalizm

bo'lib, har ishning tez bajarilishi, aytilgan narsa, yetkazilgan bilimning amaliyotdagi isbotini uzoq kutmasdan ko'rishga bo'lgan rag'bat kuchli bo'ladi. Shu boisdan ham bolalar ishtirokidagi bog'dorchilik to'garaklarida amaliy ishni tezroq namoyon etish, amaliyot mobaynida yuzaga kelgan ko'plab savollar, ya'ni, urug' navlari, vegetatsiya davvri, o'simliklar oilasi, xujayralar tuzilishi, xar xil daraxtlarni bir-biriga payvand qilish va xakozo savollar doirasida nazariy mashg'ulotlarni o'tkazish yaxshi samaralar beradi.

To'garak ishining muvaffaqiyati mashg'ulotlarning o'tkazilish vaqti, joyining qulayligi muloqot madaniyatiga ham bog'liqdir. Aksariyat odamlar, ba'zi to'garaklar, klub va ko'ngilli uyushmalariga boshqa joyda bo'lmagan imkoniyatlarga ega bo'lish uchun xam boradilar. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra xar uchtdan bir o'quvchi o'zi sevgan to'garakdagi mashg'ulotning yaqin do'stlari davrasida o'tkazilishini, 25 foiz so'ralganlar esa raxbar va to'garak a'zolarining samimiyligi va xushmuomilaligini, 16 foiz respondentlar esa bilim olish jarayoni faqat rag'batlantirish orqali kechishini, 15 foiz bolalar to'garak mashg'ulotlarida o'zlarini erkin xis etishlarini 13 foiz so'ralganlar esa turli sohadagi internet orqali tez olish imkoniyatlari borligini qayd etdilar. To'garaklar faoliyatining samarali kechishida to'garak a'zolarining soni xam muhim rol o'ynaydi. Agar to'garak a'zolari soni 15 kishidan oshmasa bu to'garakda ko'pi bilan oltita bir-birini yaxshi biladigan referent guruhlar shakllanib, jamoada sog'lom raqobat va sohani o'zlashtirish jarayoni samarali kechadi. To'garak a'zolarining soni 20-25 kishi bo'lsa, qatnashchilarning referent guruhlarda uyushuvlari amorf tarzda bo'lib sag'lom raqobatni barcha kichik guruhlarda barovar olib borish qiyin kechadi, natijada muayyan kasb, bilimlar yoki sohani o'zlashtirish samaradorligi pasayadi. To'garaklarda ishtirok etuvchilarning yosh senzlarini hisobga olishda ularning quyidagi o'ziga xosliklarini puxta hisobga olish zarurdir. O'quv-uslubiy qo'llanmalarda qayd etilishicha, 11 yoshgacha bo'lgan bolalarda mustaqil xarakat qilishga intilish, faoliyatga to'liq berilish kuchli bo'ladi. Ayni vaqtda ular o'z ishlari natijalariga tanqidiy yondoshishni xoxlaydilar.

12-13 yoshli bolalar esa o'z ishlariga tanqidiy yondoshishga moyil bo'ladilar. Ammo, ish natijalarini obyektiv tahlil qila olmaydilar. Shu boisdan boshqalardan namuna olishga, taqlid qilishga moyil bo'ladilar. 13 yoshdan yuqori bo'lgan bolalarda esa abstrakt tafakkur qilish, o'z dunyoqarashini namoyish etish, milliy o'ziga xoslikni ro'yobga chiqarish xoxishi kuchli bo'ladi. Ayni shu yoshda yoshlikka xos bo'lgan maksimalizm yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Bunday yoshdagi to'garak a'zolari fikr-qarashlarni keskin tanqid qilish, mustaqil mulohaza qilish xoxishlarini bo'g'ib qo'yish ularning to'garak ishidan sevib qolishlariga olib keladi.

## **2.2. Badiiy havaskorlik to'garaklarining taniqli badiiy jamoalar bilan ijodiy hamkorligi va faollashish bosqichlari**

Biron bir jamiyat o'z taraqqiyotini ta'minlashda madaniyat va san'atni, o'zining milliy-ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirmay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. O'zining qadimiy va an'anaviy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga o'lgan hissa qo'shgan xalqimiz tomonidan yaratilgan boy madaniyat merosimiz durdonalarini asrab-avaylash, o'zbek xalqi madaniyati va san'atining tarkibiy qismi bo'lgan qadimiy an'analarimiz, ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boylik-xalq qo'shiqlari, cholg'u markazi, tomoshalar, dostonlar, maqomlar, raqslar va milliy marosimlarni bugungi kun talabidan o'rganish, unga katta hurmat bilan munosabatda bo'lish, kelgusi avlodlarga bekami-ko'st yetkazish Istiqlol yillarida davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shuningdek, davlat rahbari tomonidan madaniyat va san'at sohasi boshqaruvi borasiga ham juda katta etibor qaratilib, yangi-yangi zamonaviy tuzilmalar tashkil etildi va birlashmalar, ijodiy ishlab chiqarish birlashmalari, ularning xuzurida sohani rivojlantirishni moliyalashtirgan jamg'armalar, madaniyat va aholi dam olish markazlari, sohaga malakali xodimlar tayyorlab beradigan oliy o'quv yurtlari, litseylar va kollejlari barpo etildi.

Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan madaniyat va san'atga mustaqillikni mustahkamlovchi bir kuch, xalqimiz, ayniqsa yoshlarda milliy g'urur, mardlik va jasorat tuyg'ularini uyg'otuvchi vosita sifatida yuksak e'tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida erkin demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan mamlakatimiz oldida milliy madaniyat va san'atimizni tiklash, asrab-avaylash va yanada rivojlantirish, uni zamonaviy jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hisobidan boyitish, o'sib kelayotgan avlodni ko'p asrlik an'ana va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bo'yicha mas'uliyatli va murakkab vazifalar turgan edi.

Madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati xalqimizning ulkan intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, barqaror rivojlangan, jismonan baquvvat va ma'nan yetuk shaxslar jamiyatini barpo etish, aholining o'sib borayotgan ma'naviy va estetik ehtiyojlarini ta'minlash, madaniyat va sport muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda 39 teatr, 175 muzey, mingdan ziyod aholi dam olish va madaniyat markazlari, istirohat bog'lari, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18-fevraldagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini keskin oshirish, O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodini yanada rivojlantirishni ta'minlash, aholi keng qatlami o'rtasida ma'nan va axloqan komil inson bo'lishga intilishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatildi va uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etildi.

Farmonga ko'ra, Madaniyat vazirligining quyidagi asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari belgilangan:

-milliy madaniy va ma'naviy merosimizni asrab-avaylash va boyitish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish; aholining ma'naviy-axloqiy va ma'naviy darajasini yanada oshirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish;

-badiiy ijodning rivojlanishini yanada rag'batlantirish, ijodiy jamoalarga, ayniqsa, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko'maklashish, madaniyat muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va faoliyati samaradorligini oshirish, ularning imkoniyatlaridan ma'nan yetuk, intellektual rivojlangan va yuqori madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishlarida yanada to'laroq foydalanish.

Farmonga binoan "O'zbeknavo" estrada birlashmasi va "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi negizida Madaniyat vazirligi huzurida "O'zbekkonsert" davlat muassasasi tashkil etilgan. Ushbu muassasa o'zida 2,5 ming ijodiy jamoa va ijrochilarni birlashtiradi hamda musiqa, xoreografiya va estrada san'atini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini va madaniyatini yorituvchi yuksak badiiy va sifatli asarlar yaratishga har tomonlama ko'maklashish imkonini beradi.

Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli R.Glier va V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan akademik musika litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazildi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarni yuqori darajada o'tkazishni kengaytirish maqsadida "Istiqlol" va "Turkiston" san'at saroylari Toshkent shahar hokimiyati ixtiyorida Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazildi, ularning o'z daromadlari bilan qoplanmaydigan qismidagi xarajatlarini moliyalashtirish uchun respublika byudjetidan mablag' ajratilishi belgilangan.

"Jamiyatni sog'lom ezgu-maqсадlar sari birlashtirib, uning o'z muddaolariga erishish uchun ma'naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor-san'at yordamida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yuksak darajaga ko'tarish bugungi yangilanish davrida



muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda”, - deb ta’kidlagan Birinchi Prezidentimiz I.Karimov. Shuning uchun ham madaniyat va san’at sohasi boshqaruv ishlarini takomillashtirish maqsadida tomosha san’ati an’alarini o‘rganish, boyitish va targ‘ib qilish, teatr san’atini har tomonlama rivojlantirish, moddiy-texnika negizini yanada mustahkamlash, islohotlarda teatr arboblarning faol ishtirokini ta’minlash, milliy va umubashariy qadriyatlarni tarannum etuvchi badiiy barkamol sahna asarlari yaratish kabi masalalarni amalga oshirish maqsadida 1998 yil 26 martda Prezident Farmoni imzolanib “O‘zbekteatr” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi va uning huzurida teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etildi.

Teatr san’ati rivoji va sohani boshqarishning zamonaviy uslublari ko‘zda tutilgan ushbu Farmonda belgilangan muhim vazifalardan yana biri “O‘zbekteatr” ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi va uning tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar barcha turdagi soliqlar va bojxona to‘lovlaridan besh yil muddatga ozod etilganligidir. Soliqdan ozod etilishi natijasida yig‘ilgan mablag‘larning mamlakatimizda teatr-tomosha san’atini, ilmiy-tadqiqot va nashr ishlarini yanada rivojlantirishga, birlashmaning moddiy-texnik negizini mustahkamlashga, soha ijodkorlarini ijtimoiy muhofaza qilish ishlari uchun sarflanishi belgilangan qo‘yilganligi ham e’tiborga molik masaladir.

“O‘zbekkonsert” gastrol-konsert birlashmasi tarkibiga kiruvchi ijodiy jamoalar va konsert zallari quyidagilar:

1. “Shodlik” davlat ashula va raqs ansambli
2. “Lazgi” davlat vokal-xoreografiya ansambli
3. “Zarafshon” davlat folklor ansambli
4. G‘.Yoqubov rahbarligidagi ansambl
5. Z.Davlatyorov rahbarligidagi ansambl
6. O.Otajonov rahbarligidagi ansambl
7. O.Orifjonov rahbarligidagi ansambl
8. O‘zbekiston milliy simfonik orkestri
9. Davlat xor kapellasi
10. T.Jalilov nomidagi davlat akademik xalq cholg‘u asboblari orkestri

11. “O‘zbekiston solistlari” davlat kamer orkestri
12. Uyg‘ur ansambli
13. “Chen-chun” koreys ansambli
14. Mumtoz ashula va raqs ansambli
15. Konsert-lektorlik byurosi
16. A.Mullaxonov rahbarligidagi “Nola” vokal-cholg‘u ansambli
17. M.Ro‘zimuhammedov rahbarligidagi “Shofayz” vokal-cholg‘u ansambli
18. Y.Abdullayev rahbarligidagi vokal-cholg‘u ansambli
19. O.Asomov rahbarligidagi “Obid-A” teatri
20. M.Xolmedov rahbarligidagi “Mirza” guruhi
21. “Yalla” davlat kamer-cholg‘u ansambli
22. M.Turg‘unboyeva nomidagi xizmat ko‘rsatgan “Bahor” davlat xalq raqs ansambli
23. “Turkiston” saroyi
24. B.Zokirov nomidagi estrada-simfonik orkestri
25. Kamer orkestr
26. “Navozonda” ovoz yozish studiyasi
27. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi bo‘limlar

Mustaqillik yillarida san‘atning barcha turlari davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan yuksak e‘tibor va katta g‘amxo‘rlik natijasida rivojlanib, ommalashib bordi. Ayniqsa, yoshlarning sevimli va ularni tez o‘ziga torta oladigan zamonaviy estrada qo‘shiqchilar san‘atiga etibor kuchayib, yangi-yangi ijodiy guruhlar va xonandalar maydonga chiqib, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida tanila boshladi. Shu bilan birga, estrada san‘ati madaniyatini, estrada ijodkorlarining professional malakasini oshirish, yosh san‘atkorlarning o‘z iqtidrini to‘la namoyon etishi uchun shart-sharoit yaratish borasida kamchilik va nuqsonlarga ham yo‘l qo‘yilib, xalqimizni Vatanga muhabbat, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi yetuk musiqiy asarlar bilan bir qatorda, mtasaddi tashkilotlar va ba‘zi estrada jamoalari hamda yakkaxon ijrochilarning mas‘uliyatsizligi oqibatida mazmunan sayoz, badiiy jihatdan zaif

qo‘shiqalar ham konsert dasturlari, radio-telekanallardan o‘rin olib, audio-video kassetalar orqali tarqatilib, ma‘naviy tarbiya ishiga salbiy ta‘sir ko‘rsata boshladi. Ushbu kamchilik va xatolarni, mavjud muammolarni hal etish maqsadida boshqaruv tizimida islohotlar olib borilmoqda.

## **XULOSA**

Ta‘limdan tashqari madaniyat muassasalarida yoshlarni san‘at va amaliy ijodiyot sohalarini uzluksiz o‘zlashtirib borish asosida ijtimoiy faolligini oshirish muhim pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biri ekanligi uqtirildi. Bu muhim ishlarni amalga oshirishda yoshlarning shaxsiy ehtiyojlardan kelib chiqib, ularni bo‘sh vaqtlari va dam olishlarini to‘g‘ri tashkil etishda madaniyat muassasalarida tashkil etilgan san‘at va amaliy ijodiyot havaskorlik to‘garaklarining ta‘limiy va tarbiyaviy faoliyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli bu muammo kerakli amaliy tadqiqot obekti sifatida o‘rganildi. Muammoning amaliy yechimi badiiy havaskorlik to‘garaklari orqali yoshlarni tarbiyalashda samarali foyda beradi.

Madaniyat muassasalarda san‘at va amaliy ijodiyot havaskorlik to‘garaklari milliy istiqbol g‘oyalari asosida yoshlar ongida shakllantirishning mavjud ahvolini tahlil qilish quyidagi xulosaga olib keldiki, yoshlar to‘garak qatnashchilarining san‘at va amaliy ijodiyot sohalarini o‘zlashtirish borasida va ularni keng, murakkab, serqirra tasavvur qilishida bir qator nuqsonlar mavjud. Buning sabablari, birinchidan, to‘garak rahbarlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan to‘garak faoliyati dasturi va qo‘llanmalarida o‘smirlarga milliy san‘at va amaliy badiiy ijodiyot orqali ijtimoiy, siyosiy, ma‘naviy tarbiya berishga yetarli o‘rin ajratilmaganligidadir.

Olib brogan tadqiqotimiz yuzasidan quyidagi takliflarni bildiramiz:

1. Madaniyat muassasalarida badiiy havaskorlik ijodiyot sohalarini o‘zlashtirib borasida yetarli imkoniyatlar mavjud holda ulardan foydalanilmayotganligi achinarli holat hisoblanadi. Shu bois, siyosiy rahbarlar, milliy san‘at va adabiyot namoyondalarini madaniyat muassasalari ishlariga faol jalb qilish yo‘llarni tashkil qilish lozim.

2. Yoshlarni san'at va amaliy ijodiyot sohasini uzluksiz o'zlashtirib borish asosida tarbiyalash, bilim va malakalarini takomillashtirish, musiqiy nazariy tayyorgarligini oshirish, badiiy vositalarni musiqa va amaliy ijodiyot sohasi g'oyalarini tahlil qilish, turli hil bayram va tadbirlarni tashkil etish, konsert safarlari, sayrlar, ekskursiyalar, sayohatlar, musobaqa va turli ommaviy ishlarni tashkil qilish, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirish lozim.

3. Yoshlar badiiy havaskorlik to'garaklarida qatnashuvi davrida turli ommaviy-madaniy tadbirlarda va professional badiiy jamoalar bilan tomosha tadbirlarida qatnashishlari hamda turli ijtimoiy siyosiy tadbirlarda qatnashishi ularning ijtimoiy faolligini oshirishda maktab rolini o'ynaydi.

4. Internet rivojlanayotgan bir davrda yoshlar o`rtasida badiiy havaskorlik to`garaklariga jalb qilishga doir mobil ilova yaratish

5. Badiiy havaskorlik to`garaklarga bag`ishlangan ilmiy ekspiditsiyalarda yoshlarni ishtirok etishini ta`minlash.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### Rahbariy adabiyotlar:

#### *1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari*

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. 2017 yil
5. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI.
6. Karimov I.A. Asarlar to‘plami. 1-19 jildlar. – T.: O‘zbekiston, 1996-2011.
7. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008.
8. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild, - T.: O‘zbekiston, 2007.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O‘zbekiston, 2011.

### **2. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:**

1. Abdullayev M. Madaniyatshunoslik asoslari. -T.: “Farg‘ona”, 1998 y.
2. Abdullayev M., Umarov E., Ochildiyev A., Madaniyatshunoslik asoslari. -T.: Turon-iqbol, 2006 y.

3. Abduraxmonov M., Raxmonov N. Madaniyatshunoslik. Universitet,-T.: 2011
4. Axmedova E, Gubaydullin R.. KulturologiY. Mirovaya kultura. -T.: 2001
5. Ochildiyev A. Madaniyat falsafasi. -T.: Muxarrir, 2010y.

### **3.Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Arzimatova I. Estetik madaniyat. -T.: Fan, 2007.
2. Axundjanov E.A. Pismennaya kultura Sredney Azii. –T.: 2000.
3. Bekmurodov M, Yusupova N. Madaniyat sotsiologiyasi. -T.: Yangi asr avlodi. - 2010.
4. Boboyev H., Hamroyev T., Alimasov V. Madaniyatshunoslik. -T.: Yangi asr avlodi. 2001.
5. Jabborov I. Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasini. -T.: O‘zbekiston, 1999. - 221 b.
6. Istoriya mirovoy kulturi. Filosofsko-esteticheskiy analiz.-M.: Turan, 1997. –S. 273.
7. Mavrulov A. Madaniyat va tafakkur o‘zgarishlari. -T.: 2004 y.
8. Karabayev U. Etnokultura. -T.: Shark, 2005.
9. Karimov B. Millat, inson va til: taraqqiyot muammolari. -Qarshi: Nasaf, 2003. .
10. Nurmatova M. Shaxs kamolotida axloqiy va estetik qadriyatlar uyg‘unligi. -T.: Universitet, 2009. -127 .
11. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar.-T.: O‘qituvchi, 1997.
12. Sagdullayev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. -T.: O‘qituvchi, 1996.
- MEDIA MARKAZI, 2007. -126 B.
13. Soatov G‘. Zardushtiylik madaniyati va ma’naviyati.-Qarshi: Nasaf, 2004.
14. Xantington S. Stolknoveniye sivilizatsiy. -M.: “AST”, 2005.
15. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi.-T.: O‘zbekiston, 2000.
16. Shermuxamedov S., Ochildiyev A. Madaniyat va sivilizatsiya. -Farg‘ona, 2000.

17. O‘tanova U. Xalq madaniyati: tarixi, nazariyasi, muammolari. –T., 2007.
18. Qoraboyev U. O‘zbek xalqi bayramlari. -T.: Sharq, 2002. -239 .
19. Qoraboyev U. Madaniyat masalalari. -T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. -286.
20. Qoraboyev U. O‘zbek xalq o‘yinlari. -T.: San‘at, 2001. -56 .
21. G‘aybullayev O. Shaxs ma‘naviy kamoloti va estetik madaniyat.-T.: CHASHMA PRINT, 2008. -159.
22. Abdullayev M., Ibragimova F. Badiiy-estetik madaniyat: nazariy metodologik jihatlar. –T.: Fan, 2007. -132.
23. Nishonova N., Risqulova K. Sog‘lom turmush madaniyati. –T.: Fan va texnologiya, 2008. -127 .
24. Sa‘dullayev N., Aminjonova M. Madaniyatimiz tarixidan lavhalar. –T.: O‘zbekiston, 1998. -85.
25. Qoraboyev U., Soatov G‘. O‘zbekiston madaniyati. –T.: TAFAKKUR-BO‘STONI, 2011. -193 .
26. Murodov M., Qoraboyev U., Rustamova R. Etnomadaniyat. –T.: Adolat, 2003.
27. Rtveladze E.V., Saidov A., Abdullayev YE.V. Ocherki istorii sivilizatsii drevnogo Uzbekistana: gosudarstvennost i pravo.-T.: Adolat, 2000.
28. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot. – Toshkent, Fan. – 2004.
29. Ma‘naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. Nazarov Q tahrir–T.: G‘afur G‘ulom, 2009. -759 b.
30. Mnogolikaya globalizatsiya . Kulturnoye raznoobraziye v sovremennom mire. Pod red. P. Bergera, S. Xantingtona. –M.: ASPEKT-PRESS, 2004.

#### **4.Elektron ta‘lim resurslari:**

[www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.philosophy.ru](http://www.philosophy.ru)

[www.press-servise.uz](http://www.press-servise.uz)

**Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти**  
**5151700 – “Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш” таълим йўналиши битирувчиси Бахруллаева**  
**Зулфиябегимнинг “Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда бадий ҳаваскорлик тўғаракларининг роли” мавзусидаги битирув малакавий ишига илмий раҳбар хулосаси**

Маданий-маърифий фаолиятни ташкил қилувчи муассасаларнинг асосий вазифалари ёшларнинг таълимдан бўш вақтларида олиб бориладиган, таълимдан ташқари ҳар хил мазмундаги ва шаклдаги “иккинчи” фаолият билан шуғулланишларига имконият яратади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислоҳ Каримов: “...ўсиб келаётган авлодга, унинг маънавий тарбиясига ниҳоятда катта жавобгарлик ҳисси билан ёндашиш масаласи. Нега деганда, ёшлар халқ маънавиятининг муносиб эгаларидир”. Ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишда маданият муассасаларининг санъат ва амалий ижодиёт билан боғлиқ фаолиятини ташкил этиш ишлари муҳим ҳисобланади. Ушбу битирув малакавий ишида ижодиёт гуруҳли ва якка тартибда олиб бориш, маданий-маърифий фаолиятни самарали ташкил қилиш, ҳаваскорлик тўғаракларнинг ижодий фаолиятини тизимлаштириш каби масалалар бўйича изланишлар олиб борилган..

Битирув малакавий ишида ёшларни санъат ва амалий ижодиётга ошно қиладиган маданият муассасалари фаолияти ўрганилган ва фаолияти таҳлил қилинган.

Битирув малакавий иши кириш, 2та боб, 4 та параграф ва хулоса ҳамда адабиётлар рўйхатидан иборат.

Тадқиқотда қуйидаги вазифаларни амалга оширилган:

- ёшларни таълимдан ташқари вақтда тарбиялашнинг назарий-услубий асосларини таҳлил қилинган.;
- таълимдан ташқари вақтда тарбиянинг ўзига хос хусусиятларини ёритиб берилган;
- бадий ҳаваскорлик тўғараклари ёшлар ижтимоийлашувига таъсирини аниқланган;
- бадий ҳаваскорлик тўғаракларининг ёшлар маданий-маънавий камолотидаги ўрнини ёритиб беришга ҳаракат қилинган;
- бадий ҳаваскорлик тўғараклари ёшларнинг бадий баркамоллигини тарбиялаш ва ижтимоий фаоллигини ошириб бориш имкониятини ўрганилган..

Битирув малакавий ишининг хулоса қисмида тадқиқот юзасидан умумий тавсиялар ва хулосалар берилган. Битирув малакавий иши талаб даражасида тайёрланганлигини инобатга олиб, ҳимояга тавсия этаман.

**“Маданият ва санъат муассасаларини ташкил этиш ва бошқариш” кафедраси катта ўқитувчиси, илмий раҳбар**



**Х.Шодиев**



**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**

**5151700 – “Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish”  
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi Baxrullayeva Zulfiyabegimning “Yoshlar ijtimoiy  
faolligini oshirishda badiiy havaskorlik to'garaklarining roli” mavzusidagi  
bitiruv malakaviy ishiga**

**TAQRIZ**

Madaniy-ma'rifiy faoliyatni tashkil qiluvchi muassasalarning asosiy vazifalari yoshlarning ta'limdan bo'sh vaqtlarida olib boriladigan, ta'limdan tashqari har hil mazmundagi va shakldagi “ikkinchi” faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov: “...o'sib kelayotgan avlodga, uning ma'naviy tarbiyasiga nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashish masalasi. Nega deganda, yoshlar xalq ma'naviyatining munosib egalardir”. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda madaniyat muassasalarining san'at va amaliy ijodiyot bilan bog'liq faoliyatini tashkil etish ishlari muhim hisoblanadi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ijodiyot guruhli va yakka tartibda olib borish, madaniy-ma'rifiy faoliyatni samarali tashkil qilish, xavaskorlik to'garaklarning ijodiy faoliyatini tizimlashtirish kabi masalalar bo'yicha izlanishlar olib borilgan..

Bitiruv malakaviy ishida yoshlarni san'at va amaliy ijodiyotga oshno qiladigan madaniyat muassasalari faoliyati o'rganilgan va faoliyati taxlil qilingan.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2ta bob, 4 ta paragraf va xulosa hamda adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Tadqiqotda quyidagi vazifalarni amalga oshirilgan:

- yoshlarni ta'limdan tashqari vaqtda tarbiyalashning nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilingan.;
- ta'limdan tashqari vaqtda tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berilgan;
- badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sirini aniqlangan;
- badiiy havaskorlik to'garaklarining yoshlar madaniy-ma'naviy kamolotidagi o'rnini yoritib berishga xarakat qilingan;
- badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlarning badiiy barkamolligini tarbiyalash va ijtimoiy faolligini oshirib borish imkoniyatini o'rganilgan..

Bitiruv malakaviy ishining xulosa qismida tadqiqot yuzasidan umumiy tavsiyalar va xulosalar berilgan. Bitiruv malakaviy ishi talab darajasida tayyorlanganligini inobatga olib, himoyaga tavsiya etaman.

**“Madaniyat va san'at muassasalarini  
tashkil etish va boshqarish” kafedrası  
dotsenti, tarix fanlari nomzodi**



**D.Yusupaliyeva**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Xalq ijodiyoti" fakulteti "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va  
boshqarish" ta'lim yo'nalishi 4-kurs bakalavriat bosqichi bitiruvchisi Baxrullayeva  
Zulfiyaning "Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda badiiy xavaskorlik  
to'garaklarining roli" mavzusi bo'yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishiga

## TAQRIZ

O'zbek xalqining milliy madaniyati asrlar davomida shakllanib, turli bosqich va tazyiqlarga bardosh berib yetib keldi. Hozirgi axborotlashgan va globallashuv jarayoni o'zbek milliy madaniyatining nazariy asoslarini yaratish dolzarb bo'lib qoldi. Chunki, dunyo amaliyotida har bir taraqqiy topgan xalq o'zidan keyingi avlod kelajagiga qayg'urib keladi. Bunda doimo kelajak avlodning moddiy farovonligini emas, milliy madaniyatimizning bir qismi bo'lgan an'ana va urf-odatlariga e'tibor va fuqarolarni ma'naviy jihatdan kamol topib borishi ham nazarda tutiladi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv, tezkor jarayonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda milliy madaniyat masalasiga alohida e'tibor berib, badiiy havaskorlik to'garaklarining ahamiyati, ehtiyojlarini qondirish bilan birgalikda dunyoqarashlarining shakllanishida, ijtimoiy hayotga munosabatlaridagi o'zgarishlari ma'naviy hayot bilan dialektik bog'liqligi, ahamiyati batafsil tahlil etilib ilmiy hulosalar berilishidadir.

Shuningdek, mazkur bitiruv malakaviy ishida badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlarning kelajagi uchun va madaniy qadriyatlarga munosabatlarining o'zgarishi misollar bilan yoritilgan.

Mustaqillik yillarida yoshlarni madaniyat muassasalarida san'at va amaliy ijodiyot sohalarini uzluksiz o'zlashtirib borish asosida ijtimoiy faolligini oshirish usullari va yo'nalishlari o'rganigan. Tadqiqotda quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xarakat qilingan.

- yoshlarni ta'limdan tashqari vaqtda tarbiyalashning nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilgan;
- ta'limdan tashqari vaqtda tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini yoritib berilgan;
- badiiy havaskorlik to'garaklarning tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq qilingan;
- badiiy havaskorlik to'garaklari yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sirini aniqlangan;

Bitiruv malakaviy ish ohiriga yetgan deb hisoblab mazkur bitiruv malakaviy ishini ijobiy baholagan holda himoya qilish mumkin deb hisoblayman

Toshkent viloyati  
Madaniyat boshqarmasi boshlig'i v.v.b.



M.Dovidxonov





